

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

UDK: 371.4

IRXONOVA NURJAMOL ABDUSHUKUROVNA

**PEDAGOGIK MAHORATNING O'QUVCHILARNI KASBGA
YO'LLASH VA MEHNATSEVARLIK RUHIDA
TARBIYALASHDAGI O'RNI**

5A 110901 – Pedagogika

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga
Ruxsat berildi.

«Pedagogika» kafedrası mudiri
prof. Hasanova K. _____

«_____» _____ 2013 y

M.O'.

Ilmiy rahbar:

Dots. Ahrorov Yu.A. _____

Samarqand – 2013

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. O'QUVCHILARNI KASBGA YO'LLASH VA MEHNATSEVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	
1.1. Yoshlarni kasbga yo'llash va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash muammosining tarixiy taraqqiyoti.....	12
1.2. O'quvchilarni ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyat jarayonlariga jalb etishda tarbiyaning roli.....	22
1.3. Mehnatsevarlik va kasbga yo'naltirish tushunchasini amalga oshirishga qo'yiladigan talablar.....	31
II BOB. O'QUVCHILARNI MEHNATSEVARLIK VA KASB-HUNAR EGALLASHGA YO'NALTIRISHNING MAZMUNI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI	
2.1. Mehnatsevarlik va kasbga yo'llash ishlariga oid tadbirlarni amalga oshirishda o'qituvchining tarbiyachilik mahorati.....	38
2.2. Mehnatsevarlik orqali kasbga yo'naltirishni amalga oshirish yo'llari va shakllari.....	50
III BOB. O'QUVCHILARNI KASBGA YO'LLASH VA MEHNATSEVARLIK RUHIDA TARBIYALASHGA OID TAJRIBA-SINOV ISHLARI TAHLILI	
3.1. O'quvchilarni kasbga yo'llash va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik mahoratning o'rni.....	60
3.2. Tajriba-sinov ishlarining borishi va olingan natijalar tahlili.....	62
Xulosa va tavsiyalar.....	67
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	72
Ilovalar.....	77

KIRISH

Muammoning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan mustaqillik islohotlari iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, mafkuraviy, madaniy islohotlar ta'lim-tarbiya tizimida ham jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasida davlat tashabbuskor hisoblanib, rahbarlik qilmoqda. Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimidagi yangilanishlar Oliy Majlisning 1997 yil 29 avgustda bo'lib o'tgan 1-chaqiriq 9-sessiyasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi" talablari asosida amalga oshirilmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida zamonaviy kasb-hunarlarning erkin raqobatida sifat ko'rsatkichlarni ta'minlash uchun Respublikamizda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy kasbiy tizimi bosqichini rivojlantirish yo'lida yirik ishlar amalga oshirilmoqda.

"Akademik lisey davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradi. O'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi"¹.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilar muayyan kasblarga nisbatan yo'naltirilsa, o'rta maxsus kasb - hunar ta'limi bosqichida o'quvchilar turli xil kasblarning asoslarini, kichik mutaxassisliklar darajasida zaruriy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallab boradilar. "Kasb-hunar kolleji tegishli davlat ta'limi standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi; o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi"².

Yosh avlodning kelgusi hayotda, ishlab chiqarishda, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatda o'zlariga munosib o'rinlarni topishlarida ularga zamonaviy kasb-hunarlar yo'naltirish, ularni kelajak faoliyatga tayyorlash ishi insoniyat jamiyati

¹ Баркамол авлод-Ўзбекистон таракқиётининг пойдевори.-Т.:Шарк. 1997.-47-б.

² Баркамол авлод-Ўзбекистон таракқиётининг пойдевори.-Т.:Шарк. 1997.-48-б.

paydo bo'lganidan boshlab keksa avlod oldida turgan muqaddas vazifalardan hisoblanib kelgan.

O'tmish avlod o'zining hayotiy tajribalarini yosh avlodga o'rgatish to'g'risida g'amxo'rlik qilib kelgan. Ular o'z tajribalarini turli xil manbalarga bitib qoldirishganlar. Yozuvlar paydo bo'lganidan keyin esa, turli xil asarlar yaratish orqali o'z tajribalarini kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirganlar. Masalan, ibtidoiy davr odamlari o'z farzandlarini yetaklab yurib, ovga, dehqonchilikka o'rgatib tajribalarni toshlarga, terilarga, buyumlarga o'tkazish orqali qoldirgan bo'lsalar, keyinroq esa, bu hol turli xil bitiklarda namoyon bo'lgan. Jumladan eramizdan avvalgi V-IV asrlarda O'rta Osiyo va Markaziy Osiyo davlatlari hududida yashagan xalqlar sig'ingan zardushtiylar dinining muqaddas kitobi "Avesto"da yirik qoidalar to'plamlari tarzida bayon etilgan. Avestoda keltirilishicha yaxshilik va ezgulik yaratish uchun kishi mehnat qilishi, o'z qo'llari bilan moddiy noz-ne'matlar yaratishi lozim deb hisoblashgan.

Qadimgi misrliklar o'z hayotiy tajribalarini papirus o'simligi barglariga, tosh-taxtalarga yozib qoldirgan bo'lsalar, Osiyolik donishmandlar, qog'oz paydo bo'lgach, ularga turli-tuman asarlar bitganlar. Masalan, Kaykovus tomonidan o'z avlodlariga pand-nasihat qilishi yuzasidan yaratilgan "Qobusnoma" asari ham nodir tarbiyaviy manbalardan hisoblanadi. Undagi mazmuni ifodalaydigan mavzular maqolalardan iborat bo'lib, ijtimoiy -iqtisodiy, madaniy hayotning ko'pgina sohalari to'g'risida nasihatimiz fikrlar yuritiladi. Jumladan, "Hunarning afzalligi va qadri baland, tabiatli bo'lishga bag'ishlangan 6-maqolot, "dehqonchilik" va bozor hunarlari haqida 43 maqolatlar, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Jumladan, 6-maqolatda yoshlarga kasb-hunarlarini o'rgatish to'g'risida shunday deyiladi: "Ey farzand, ogoh bo'lkim, hunarsiz kishi hamma vaqt foydasiz bo'lur va hyech kimga foydasi tegmaydi"³

VII-VIII asrlarda Arabistonda shakllangan islom dinining tabarruk kitobi "Qur'oni karim"da va shu asosda yaratilgan hadislarda qur'on so'zlari sharhi ham yoshlarga turli hunarlarni o'rgatish muhimligi keltirilgan. Jumladan, mashhur

³ Кайковус. Қобуснома. –Т.: Ўқитувчи 1986.-41 бет.

muhaddislardan (hadisshunos allomalardan) hisoblangan Xo'ja Ismoil Imom al-Buxoriy (810-870) ning yirik asarlaridan hisoblangan, tarkibiga 11 mingdan ziyod hadisni qamrab olgan kitobi "Al jome'-as sahih" (Ishonarli to'plam)ning "Savdosotiq» kitobidagi 14-bobda "Kishining kasbi va o'z qo'li bilan mehnat qilishi haqida" shunday deyiladi: "Oysha roziallohu anho rivoyat qiladilar: "Abu Bakr Siddiq xalifa bo'lganlarida mening o'z kasbim borligini qavmimiz yaxshi bilir. Men garchi musulmonlar ishlari bilan band bo'lsam ham, shu kasbim orqali oila tebratgayman".⁴

Sharq xalqlari taraqqiyotida yoshlarga kasb-hunarlar o'rgatish, ularni halol mehnat qilishga da'vat qilish turli davrlarda yashagan donishmandlarning tarixiy asarlarida va boshqa turli manbalarda keng bayon etilgan.

Al Xorazmiy, Al Farg'oniy, Al Marg'iloniy, Abu Nosir Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, az-Zamahshariy, Xoja Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, kabi ko'plab donishmand-mutafakkirlar asarlarida ham yoshlarning odobi, axloqi, ta'lim-tarbiyasi hamda kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish to'g'risida turli fikr-mulohazalar bildirilgan. Dunyoning barcha taraqqiy etgan davlatlarida ham yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ularni ma'lum kasbga oid bilim va ko'nikmalarini egalashga yo'llash bolalar mehnatini tashkil etish muammolari dolzarb masalalardan hisoblanib kelgan.

Bizning olib borgan kuzatishlarimizga ko'ra, «Shaxsning kasblarga bo'lgan munosabatlarini shakllantirish uchun, aynan ana shu o'quv yurtlari, tadbirlar zarur» deb atalgan mukammallashgan tadqiqotlar mavjud emas [30:31].

Jamiyat-shaxs ehtiyojlari va rivojlanishlarining uzviy mutanosibligiga erishish bir tomondan, o'quvchi-yoshlarni ongli ravishda kasb-hunar tanlashga yo'naltirishni, ikkinchi tomondan esa ularni kasbiy layoqati va kompetentligini shakllantirish muammolarini o'z ichiga qamrab oladi. Bu masalalarni yechimini

⁴ Ал Жомеъ ас-Саҳиҳ,Хожа Исмоил Ал-Бухорий Т.:1992. 2 т.29-б.

topishda mutaxassislik fanlari qatorida pedagogika va psixologiya fanlari oldiga ham muhim vazifalar turadi.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» amaliyotga kiritilganidan bugungi kungacha barkamol avlod tarbiyasi sohasida katta yutuqlar qo'lga kiritildi, yangi-yangi ilmiy-uslubiy natijalar olindi. Ammo shu bilan birgalikda umumta'lim maktablarida o'qiydigan iqtidorli yoshlarni izlash, tanlash va ularni kasbiy faoliyatning turli yo'nalishlarga bo'lgan moyilliklarini e'tiborga olgan holda uzluksiz ta'limning yuqori bosqichlari-akademik lisey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalariga ta'lim olishlarini davom ettirishlariga amaliy-uslubiy, shuningdek iqtisodiy-ijtimoiy yordamlar ko'rsatish mexanizmlari to'lasincha ishlab chiqilgan deb bo'lmaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Pedagog olimlardan S.Ya.Batishev[16], V.P.Bespalko[17], Ye.A.Vayner[18], B.Z.Vulfov[19], L.S.Vigotskiy[20], B.S.Gershunskiy[21], M.I.Yereskiy[28], N.V.Nikitin[44:45], V.A.Slastyonin[52] kabilar yoshlarni ishlab chiqarishga, turli xil kasb-hunarlariga tayyorlash ishining ko'p qirrali sohalarini tadqiq etib, yoritdilar.

Respublikamizdagi pedagog olimlaridan K.D.Davlatov[22], R.X.Djurayev[25], J.G'.Yo'ldoshev[32:33], A.Mamajonov[39], I.Misliboyev[40], U.N.Nishonaliyev[43], N.S.Sayidahmedov[49:50], A.R.Xojaboyev[55], N.Sh.Shodiyev[57], Ya.Haydarov[66] va boshqalar kasb-hunar ta'limi sohalarida, jumladan, pedagog-mutaxassislarni tayyorlash, ularning kasbiy mahoratini takomillashtirish to'g'risida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Olimlardan R.Keldiyorov[37], Sh.Kurbonov[38], M.Ochilov[46:47], B.X.Raximov[48], E.O.Turdiqulov[53], kabilar o'qituvchining kasb madaniyati va mahoratiga oid xususiyatlari borasida tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Sh.Baratov[15], G.Davletshin[23], V.Karimova[36], E.G'oziyev[63:64], B.Qodirov[61] va boshqa olimlar o'quv faoliyatining psixologik tomonlarini, ta'lim-tarbiya jarayonining ruhiy xususiyatlarini tadqiq qildilar.

Yoshlarga kelgusi hayotlarida kasb-hunar o'rganish masalalari bilan M.E.Jumayev[26], B.R.Jo'rayeva[24], H.Ibragimov[29], X.Sariboyev[51],

P.Xolmatov[56] va boshqa pedagog-olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan. Ammo, yoshlarni kelgusida turli xil kasb-hunarlariga yo'llash ishida, jumladan o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogika mahorati masalalarida jiddiy muammolar mavjud bo'lib, bu haqda "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi"da o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimidagi mavjud muammolar, yetishmovchiliklarni bartaraf etish va amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar to'g'risida shunday deb ko'rsatiladi:

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;

- o'rta maxsus, kasb - hunar ta'limi, o'quv muassasalari uchun ta'lim va kasb-hunar dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar ishlab chiqish;

- kasb - hunar kollejlari tayyorlanadigan mutaxassislariga nisbatan ixtisos va kasb-hunar malaka talablarining ro'yxatini ishlab chiqish;

- hududlarning jo'g'rofiy va demografik shart-sharoitlarini va tegishli sohadagi mutaxassislariga bo'lgan mahalliy ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi, ta'lim muassasalarining tashkil etilishini va ular oqilona joylashtirilishini ta'minlash, ularga o'quvchilarni imkon qadar oilasidan ajratmagan holda qamrab olish;

Xorazm, Buxoro, Farg'ona, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo, Andijon, Qo'qon, Namangan va Toshkent diyori azaldan o'zining hunarmandlari bilan ham dong'i ketgan. Hunarmandchilikni o'nlab sohalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar xorijga ham chiqarilgan. Jumladan: zargarlik, kashtachilik, kulolchilik, naqqoshlik, temirchilik, misgarlik, qoshiqchilik, tikuvchilik, to'quvchilik, bo'yoqchilik, beshikchilik, egarchilik, oshpazchilik, qandolatchilik va hokazolar qatorida chinni va billur idishlari, konservalash va boshqa yangi sohalar bilan hunarmandchiligimiz boyidi. Lekin, ijtimoiy taraqqiyot taqozosi bilan ayrim hunarmandchilik sohalarini inqirozga uchrab, ayrimlari yo'q bo'lish arafasida tushib qolgan edi. Shukurki, mustaqillikka erishgandan keyin yana ota-bobolarimiz, momo-onalarimiz kasbu-korini egallashga yanada ko'proq e'tibor qaratilib, "2011 yilni Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik" deb nomlanishi ham bejiz emas.

Shu sababli maktabdagi mehnat tarbiyasi va ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarni ilm-fan asoslari orqali muntazam bilimlar bilan puxta qo'rollantirish, ularda mehnatga va qadimiy hunarmandchilik kasbiga muhabbat, kasb-hunar ahliga hurmat tuyg'usini singdirish, ularni hozirgi zamon ishlab chiqarishining ilmiy-amaliy asoslari va eng muhim kasblar bilan tanishtirishda va tushuntirishda **o'qituvchidan mahorat** talab qilinadi.

Tabiiyki, o'quvchilarda mehnat va kasb-hunarga muhabbat hissi o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Ularda bunday xislat va qiziqishni asta-sekin oilada ota-onaning shaxsan namuna ko'rsatishi, keyinchalik maktabda o'qituvchilar tomonidan o'tkaziladigan mehnat ta'limi darslari, darsdan tashqari turli tadbirlarda va to'garak mashg'ulotlarida jahon xalqlarining, shu jumladan, SHarq xalqlarining asrlar davomida ardoqlanib kelayotgan mehnatsevarlik an'analari va kasb-hunar to'g'risida kengroq tushuncha berish orqali tarkib toptirish mumkin. Zero, o'quvchi yoshlarimizga bizning hozirgi hayotimizga yetib kelgunga qadar ajdod-avlodlarimiz o'z tarixida juda ko'p mashqqatlarni boshidan kechirganligini, mashaqqatli mehnat qilganligini va hozirgi kunda mehnat qilish uchun kasb-hunar egallash uchun shart-sharoitlar yaratilganligini o'qituvchi sa'nat-mahoratini ishga solib o'quvchilarga tushuntirmog'imiz lozim. Bunday tushuntirish, uqtirishi, turli-xil qiziqarli tadbirlar orqali yoshlarni kelajakda mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash bizga tadqiqot mavzusini quyidagicha tanlashga imkon berdi: **«Pedagogik mahoratning o'quvchilarni kasbga yo'llash va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashdagi o'rni»**.

Tadqiqotning maqsadi O'quvchilarni kasbga yo'llash va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash mazmunini ishlab chiqish va bunda pedagogik mahoratning ahamiyatini belgilash.

Tadqiqotning obyekti- o'quvchilarni zamonaviy kasbga yo'naltirish va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash jarayoni.

Tadqiqotning predmeti- o'quvchilarni zamonaviy kasbga yo'naltirish va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash mazmuni va pedagogik mahoratning o'rni.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarni kasbga yo'llash va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashning mazmun-mohiyati va bunda pedagogik mahoratning ahamiyatini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash.

2. Pedagogik mahoratning o'quvchilarni kasbga yo'llash va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash imkoniyatlarini aniqlash.

3. O'quvchilarni kasbga yo'llash va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashning mazmun, shakl, metod va vositalarini belgilash, ularning samaradorligini tajriba-sinov ishlari natijasida aniqlash hamda ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy farazi - O'quvchilarning zamonaviy kasblarga munosabati va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish muvaffaqiyatli bo'ladi, agarda:

- o'quvchilarni kasbga yo'llash va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash milliy metodologik, tarixiy va ma'naviy asoslariga tayanilsa;

- umumta'lim maktablarida zamonaviy kasblarga yo'llash va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashning milliy modeli bo'yicha ishlab chiqilsa;

- o'quvchilarni kasbga yo'llash va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashning maxsus metodikasi tajriba-sinovdan o'tkazilib uning samaradorligi aniqlansa;

- bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarni kasbga yo'llash va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash faoliyatiga tayyorlash mahoratining shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlar ishlab chiqilsa va sinovdan o'tkazilsa;

- umumta'lim maktablari o'quvchilarini kasbga yo'llash va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini ta'minlashga oid uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilsa.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

1. Kasb-hunar ta'limining ilmiy-nazariy, ma'naviy asoslarini aniqlash;

2. O'quvchilarni kasbga yo'llash va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashni aniqlovchi mezonlarni ishlab chiqish;

3. O'quvchilarni kasbga yo'llash va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati quyidagilardan iborat.

- Kasb-hunar ta'limining ilmiy, metodologik asoslari;
- O'quvchilarni kasbga yo'llash va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda o'quv-tarbiyaviy tadbirlarning shakllari va mazmunini yoritish.

- O'quvchilarning kasbga yo'llash va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga doir bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish darajalarini belgilash.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati:

- O'quvchilarni kasbga yo'llash va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda tarbiyaviy tadbirlarning o'rni belgilandi;

- Sinf dan va maktabdan tashqarida o'tkaziladigan o'quvchilarni kasbga yo'llash va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga oid tadbirlarning shakllari va mazmuni tanlab, tajribada sinab ko'rildi;

- O'quvchilarni kasbga yo'llash va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishni tizimlashtirish va takomillashtirish to'g'risida metodik tavsiyalar ishlab chiqildi hamda amalda sinab ko'rildi;

- O'quvchilarning kasbga yo'llash va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga doir bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish darajalarini aniqlovchi mezonlari ishlab chiqildi.

Tadqiqotning metodologik asoslari bo'lib Sharq va G'arb allomalari, ma'naviyat, madaniyat darg'alarining yoshlarga kasbiy bilim va ko'nikmalarni, shaxsiy fazilatlarini shakllanishiga oid g'oyalari, yosh avlodga kasb-hunar o'rgatish to'g'risida yetakchi falsafiy, pedagogik, psixologik va didaktik nazariya va g'oyalar;

O'zbekiston Respublikasi hukumati davlat boshqaruvining, Oliy Majlis va Prezidentning yoshlarga bilim, kasb-hunar o'rgatish to'g'risidagi qaror va farmonlari, nizomlari, qonunlari, yo'riqnoma me'yoriy hujjatlari, "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi" va "Ta'lim to'g'risidagi Qonun "Sog'lom avlod" Dasturi, Kasbiy ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish to'g'risidagi ilg'or pedagogik texnologiyalar to'g'risidagi nazariyalar xizmat qildi.

Tadqiqotni olib borish metodlari - Tadqiqot mavzusiga oid falsafiy, psixologik, pedagogik, metodik adabiyotlar va ta'lim mazmunini yorituvchi

me'yoriy hujjatlarni o'rganish, tahlil qilish; ilmiy arxiv manbalarni o'rganish va ommalashtirish, kuzatish, yozma, tahlil qilish, test, test-anketalar, anketa-so'rovnomalar, suhbat, matematik-statistika.

Tadqiqot ishining ommalashtirilishi. Tadqiqot natijalari Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida, SamDU magistrantlarning an'anaviy anjumanlari to'plamlari, "Ziyokor" ilmiy-uslubiy, adabiy-badiiy jurnalida chop etilgan.

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari.

Birinchi bosqich (2011 yil sentyabrdan – 2011 yil dekabrgacha)da tadqiqot muammosiga oid falsafiy, psixologik, pedagogik va metodik adabiyotlar, ilmiy tadqiqot ishlari, shuningdek, pedagogik ta'lim mazmuni o'rganildi. Shu asosda tadqiqot ishining maqsadi, obyekti, predmeti, ilmiy farazi va vazifalari belgilandi. Maqbul metodlar aniqlandi. Dastlabki tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish uchun materiallar tayyorlandi.

Ikkinchi bosqich (2012 yil yanvardan – 2012 yil dekabrgacha)da asosiy e'tibor tajriba-sinov ishlarini tashkil etishga qaratildi. Tajriba-sinov ishlarini o'tkazish uchun tajriba maydoni belgilab olindi.

Uchinchi bosqich (2013 yil yanvar - may)da shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Tadqiqot muammosi yuzasidan ishlab chiqilgan metodikaning samaradorlik darajasi aniqlandi, olingan natijalar matematik-statistik metod yordamida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar berildi.

Tadqiqot ishining tuzilishi va hajmi. Magistrlik dissertasiyasi kirish, uch bob, 7 paragraf, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Hajmi 76 bet.

I BOB. O'QUVCHILARNI KASBGA YO'LLASH VA MEHNATSEVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Yoshlarni kasbga yo'llash va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash muammosining tarixiy taraqqiyoti

Har bir jamiyat o'zining tarixiy taraqqiyoti pog'onalarida o'z hayotiy tajribasini yosh avlodga o'rgatish bilan, o'sib kelayotgan avlodni hayotga va kasb-hunarlariga tayyorlab borish ishi bilan shug'ullangan. Tarixiy tadqiqotlardan ma'lumki, dastlabki odamlar yashash uchun ov qilish, baliqlar va qushlarni ushlash, turli hayvonlarni xonakilashtirish, keyinchalik esa, dehqonchilik qilish, o'simliklarni parvarishlash, ularni madaniylashtirish va ko'proq hosil olish yo'llarini izlaganlar. Ana shu turmush faoliyatlari natijasida chorvachilik, qishloq xo'jaligi kasblari yuzaga kela boshlagan. Masalan, qo'lga o'rgatilgan qoramollar, qo'ylar va otlarga qarash, ularni parvarishlash va saqlash cho'pon, yilqichi, chorvador kasblarining negizini tashkil etgan. Turli xil o'simliklarni madaniylashtirish, ularning navlarini yaxshilash, saralab borish, ekinlar xususiyatini o'rganish, ulardan yuqori hosil olish yo'llarini aniqlab borish dehqonchilik va o'simlikshunoslik kasblarining asosini tashkil etgan. Dastlabki odamlar insoniyatning o'z taraqqiyoti davomida to'plangan hayotiy tajribalarini turli xil san'at namunalariga, toshbosma va qo'lyozma asarlariga, buyumlarga, keyinchalik esa, qog'oz paydo bo'lgach, turli kitoblarga yozib, tarixiy meroslar sifatida qoldirib ketganlar. Shu asosida insonlarda bilim va ko'nikmalar shakllanib kelgan [54;59;65].

Markaziy Osiyo davlatlarida dastlabki madaniy taraqqiyot belgilariga qarab, rivojlanish davrlarini shartli ravishda quyidagicha belgilash mumkin: 1. (Qadimiy so'g'd davri miloddan avvalgi VI-IV asrlar) 2. Sug'd-ellinistik davri(miloddan avvalgi III-I asrlar): 3. Sug'd-kangyuy davri(miloddan avvalgi va milodiy IV asrlar);

Ana shu davrlarga mos holda yasab qoldirilgan buyumlarda o'sha davr madaniyati aks ettirilgan. Turli davlatlardagi buyumlarning har xil kasb-hunar

egallari, kulollar, tosh yo'nuvchilar, haykaltaroshlar, kimyogarlar, alximiklar po'lat, metall erituvchi quyuvchilar va boshqalar mehnati natijasida yasalganligi ko'hna tarixdan ma'lum. Turli xalqlarning madaniyatlari, kasb-hunarlarini har xil sabablarga bilan bir-biriga yaqinlashib, o'zgarib, ko'p tarmoqlanib turgan. Bunday sabablarga o'zaro urushlar, savdo-sotiqning rivojlanishi, kasb-hunar egalarining bir davlatdan ikkinchi bir davlatga ko'chib ishlashlarini misol qilib keltirish mumkin. Masalan, o'zaro urushlarda g'olib bo'lgan podsholiklar turli hunar va zakovat egalarini o'z mamlakati markaziy shaharlariga olib ketganlar va ularning hunarlaridan davlat taraqqiyoti uchun umumli foydalanishgan. Savdo-sotiqning rivojlanishi, masalan, "Buyuk ipak yo'li" ning taraqqiy etishi, davlatlarda madaniyat va taraqqiyotning ancha rivojlanishiga olib kelgan. Bunga sabab o'sha davrda yashab ijod qilgan allomalarning kasbiy bilim va ko'nikmalari hamda mahoratlarini yuksak darajada namoyon eta olganligidadir. Tarixiy manbalardan ma'lumki, Sharq mamlakatlarida dastlabki Uyg'onish davri IX-X asrlarda boshlanib, ilm-fan, madaniy taraqqiyotida yirik o'zgarishlar yuz bergan. O'sha davrning yirik allomalari, fuzalolar Muso al Xorazmiy (780-850), Imom at Termiziy (824-892), Imom al-Buxoriy (809-869), Ahmad Farg'oniy (IX asr) va boshqalar algebra, tibbiyot, handasa, geometriya, jug'rofiya, falakiyot, trigonometriya, tarix, ilohiyot, hadis ilmi va boshqa fanlarning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shganlar, yoshlarda bilim ko'nikma va malakalarni shakllantirishga oid fikr va mulohazalar yuritishgan hamda bular to'g'risida yozma manbalarda bayon etganlar [58].

Masalan at-Termiziyning "Sunan" nomli asarida yoshlarga mehnat qilishni o'rgatish, ularning tarbiyasi to'g'risida, jumladan kimda - kim ko'chat o'tqazsa, yo bo'lmasa ekin eksa-yu, ular hosilidan odamlar, qushlar va hayvonlar bahra olsa, bu ham o'sha odam uchun sadaqa hisoblanishi alohida qayd etilgan.

Qomusiy alloma Al-Farg'oniy ilm-tafakkuri rivojlanishi natijasida insoniyat tarixida dastlab borib bo'lmaydigan kengliklarni, masalan, Nil daryosining sathini o'lchab, uning aniq sathi yuzasining miqdorini chiqarishga muvaffaq bo'ladi. Bu o'lchash usullarini Al Farg'oniy o'z kasbiy bilim va ko'nikmalaridan kelib chiqqan

holda ilmiy –nazariy jihatdan asoslab bergan. Bu esa asrlar bo'yi turli fanlar sohaları taraqqiyotiga ham ijobiy ahamiyat kasb etadi.

O'sha davrning buyuk allomalaridan hisoblangan Roziy Abu Bakr Muhammad ibn Zakariy 200 dan ziyod asarlar yozib qoldirganlar. U umrining so'ngida ko'r bo'lib qolsa-da, tabobat ilmi bobida ham tengsiz ishlarni amalga oshirganlar. Masalan, u "Kasb-hunar san'atlarining afzalligi, ilmiy va diniy haqiqatlar" haqida bir odam yuz yil yashaganda ham, agar u o'tmishdoshlarining tajribasi bilan tanish bo'lmasa, faqatgina o'zining kuzatishlari bilangina hych bo'lmaganda tabobatga oid haqiqatlarning asosiy qismini bilib olish mumkin bo'lmasligini ta'kidlab o'tgan. Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda shunday xulosa qilishimiz mumkinki, insonning kasbiy bilim va ko'nikmalari o'tmish avlodlarimiz tajribasiga tayangan holda shakllanadi va takomillashib boradi. O'rta asr sharqining mashhur mutafakkiri qomusiy alloma Abu Nasr Forobiy falsafa, mantiq, riyoziyot, tibbiyot, alkimyo, falakiyot kabi sohalar rivojlanishida katta ishlarni amalga oshirdilar. U «Baxt-saodatga erishuv yo'lida» nomli asarida insonning turli kasb-hunarlarni egallashda insonning kasbiy bilim va ko'nikmalari, san'atdagi fazilati tug'ma emasligini ta'kidlab o'tgan.

Sharq xalqlarining faxri hisoblangan yirik qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy bolalarni o'qitish jaryonida ularni zeriktirmaslik kerakligi, chunki doimo bir xil narsani takrorlash malollik va sabrsizlikka olib kelishini, o'quvchi fandan-fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshashini ta'kidlab o'tgan[116].

Buyuk mutafakkir, ensiklopedik olim Abu Ali Ibn Sino, Markaziy Osiyoning ulug' donishmandlaridan hisoblangan Yusuf Xos Xojib Balosog'uniy kabi olimlar bolaning rivojlanishida ota-onaning loqayd qarab turmasligi kerakligini, ota-onalarning faol aralashishlarini talab etadi. Ular bolalar tarbiyasi muhimligini ta'kidlab o'g'il bolalarga barcha san'at hunarlarni tugal o'rgatish lozimligini ta'kidlashgan.

Tarixiy rivojlanish pog'onalaridan ma'lumki, 900-1200-yillarda sharqdagi ilk Renessansning (Uyg'onish davrining) dastlabki bosqichi yuzaga keldi deyish mumkin. Ushbu ilk Uyg'onish davrida ilm-fan gurkirab rivojlanadi, ishlab

chiqarish (tarqoq bo'lsa-da) taraqqiy etdi, hunarlarni egallash bag'oyat kengaydi. Sharq ilk Renessensi Chingizxon boshchilik qilgan mo'g'ullar armiyasining O'rta Osiyoga qilgan istilochilik hujumlari natijasida bir necha asrga to'xtab qoldi. Faqatgina sohibqiron Amir Temurning yagona davlatchilik siyosati tufayligina Movarounnahr, Dashti Qipchoq, Xuroson, Eron, Turon va boshqa davlatlar mo'g'ullar istibdodidan ozod bo'ldi va ulug' davlat- imperiyaga aylantirildi. Bu davlatlarda yana qaytadan madaniyat, san'at, xalq xo'jaligi, ilm-fan taraqqiy etdi. Osiyo davlatlari taraqqiyotida muhim o'rin tutgan Amir Temur ham o'z davrida, o'z davlatida ko'pgina yaratuvchilik ishlarini ham amalga oshirdi. Uning davrida Movarounnahr, Xuroson davlati faqatgina o'zlarini himoya qilibgina qolmasdan, balkim, harbiy ishlarda, san'atda, ilm-fanda, hunarmandchilikda juda katta ijobiy o'zgarishlarga duch bo'ldi. Chunki, jahonning turli mamlakatlaridagi olimlar, fozilu-fuzalolar, kasb-hunarlar egalari, shoirlar, allomalar va boshqa ijod kishilari Movarounnahrda olib kelinar va sharoit yaratib berilar edi. Chunki Amir Temur hukmronlik qilgan yillarda kasb-hunar kishilari faoliyati davlat nazoratida, himoyasida bo'lgan, davlat yordamida ularning kasbiy bilim va ko'nikmalari natijasi sifatidagi ishlari rivojlantirilgan, haqiqiy yalpi ishlab chiqarish darajasiga ko'tarilgan.

O'z davrining taniqli nazariyotchi- ta'limotchilaridan hisoblangan Xoja Bahouddin Naqshbandiy hazratlari (1318-1389) butun bir (diniy) ta'limotga, ya'ni naqshbandiya tariqatiga asos soldilar va rivojlantirdilar. Naqshbandiya tariqatining asl mazmuni "Dil-ba yoru- dastba kor", ya'ni "Doimo ko'ngling allohda-yu, qo'ling ishda bo'lsin) degan shiordan iboratdir. Inson o'zining kunlik yashashida, turmushida avvalo, halol mehnat bilan yashashi, biror kasb-hunar egasi bo'lmog'i, so'ngra esa ollohga sig'inishi, ilohiy ilmlar bilan shug'ullanishi lozim. Bundan ko'rinadiki, insonda hayotiy tashvishlar esa, uning asosiy ehtiyoji bo'lmog'i lozim.

Xorazm o'lkasining zabardast o'g'lonlaridan biri bo'lgan Pahlavon Mahmud (1247-1326) ulug' shoir, polvon kurashchi, donishmand maslahatchi, insonparvar, xalqparvar ziyoli bo'lganlar. Uning o'zi telpakdo'z hunarmand

xonadonida dunyoga kelish bilan birga, polvonlik (kurashchilik) kasbining orqasidan kun kechirgan.

Buyuk allomalar, fozilu-fuzololar "ilm o'rganishdan avval, sohibi hunar bo'lg'in" degan aqidaga rioya qilishni o'z shogirdlaridan talab etganlar, ya'ni, ilm olishga kelayotgan tolibi ilmning avvalo, ma'lum bir hunarni egallashlarini, o'z oila-ro'zg'orlarini ana shu hunar bilan boqishlarini talab etganlar. Shundan keyingina shogirdlariga ilohiy. va dunyoviy ilmlarni o'rganishga ruxsat etilgan.

XIV-XVI asrlarning yorqin yulduzi, turkiy adabiy tilining asoschisi, buyuk alloma, davlat arbobi, donishmand Alisher Navoiy hazratlari (1441-1501) ham yoshlar tarbiyasi, ularning turli hunarlarning egasi bo'lishlarini orzu qilgan va ularga turli hunarlar o'rgatishni targ'ib qilganlar. Uning juda ko'plab asarlari, masalan, "Hamsa", "Hayratul-abror" (1483) (yaxshilarning hayratlanishi). "Farhod va Shirin", (1484) "Saddi Iskandariy" (Iskandar devori) (1485), "Mahbub ul-qulub"(Qalblar sevgisi), "Xazoyin ul-maoniy" (Ma'nolar xazinasi) (1498) "Sab'ai Sayyor"(Yetti yo'lovchi), "Muhokamatul - lug'atayn", "Mantiq ut-tayr" kabi ko'plab asarlarida yoshlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga oid muammolar yechimi, insonlarning lozim bo'lgan yaxshi fazilatlarini, qarama-qarshi hislatlar yoritiladi. Masalan, "Hayrat ul abror" asarida asosiy g'oyalar asardagi maqolalar va ulardagi rivoyatlarda ifodalanadi hamda har bir rivoyat ma'lum bir hislatni ulug'lash uchun xizmat qildiriladi. Mazkur, maqolatlardan "Hotam Toyi va o'tinchi chol" hikoyati, "Abdurahmon Jomiy va o'g'ri", "Maymun bilan najjor", "Sher bilan Durroj" kabi hikoyatlarda ham halol mehnatning ulug'lanishi, kasbga oid bilim va ko'nikmalarning inson hayotidagi afzallik jihatlari yoritiladi. Misol uchun, "Maymun bilan najjor (duradgor)" maqolatining mazmunida har bir ishni, yumushni biladigan kishi, kasb-hunar egasi bajarishi lozimligi ma'nosi yotadi. Ya'ni, maymun duradgorning yog'och yo'nayotganligini ko'rib, "men ham yog'ochni yo'na olaman" degan mazmunda, najjor tushlikka ketganida, uning asboblari bilan duradgorlik qila boshlaydi va natijada dumi yog'ochning yorig'iga kirib, qisilib qoladi va natijada tushlikdan qaytib kelayotgan duradgorni ko'rib, "qochaman" deb urinadi va dumidan ayriladi. Demak, ushbu rivoyatdan kelib

chiqqan holda, shunday xulosa qilish mumkinki, har bir kasbga oid faoliyatni o'sha kasb egasi bajarsagina kutilgan samarali natijaga erishiladi.

Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida bosh qahramon Farhodning hunari, uning ariq qazish jarayoni vaqtida tosh o'yishda ishlatgan asboblari. Naqqosh Moniy (Farhodning ustози va do'sti), tosh-tarosh Shopur (do'sti) hamda Mehinbonuning san'atini ta'riflash orqali kasb-hunarlarini egallash lozimligini ulug'laydi.

Bilgan, o'rgangan hunarlarimni asramasdan, tuproqqa olib ketmasdan, el-yurt, xalq manfaati ravnoqi uchun ishlatishim kerak, degan g'oyani ilgari suradi.

Alloma Alisher Navoiy yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, ularni nodir fazilatlar egasi qilib tarbiyalashning afzalligi to'g'risida ko'plab asarlarida alohida e'tibor beradi. Mutafakkir ustoz, shuningdek, o'qituvchi-murabbiy, mudarrislar ularning hislatlari to'g'risida "Mahbub ul-qulub" ("Qalblar sevgilisi") asarida shunday yozadi. "Mudarrislar-mansab va amaldorlikka qiziqmasligi; o'zi bilmaydigan ilmdan dars berishga urinmasligi: manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasligi; mudarris-din ilmdan aniq masalalarni bilmog'i kerak, ko'pchilikka dunyoviy bilimlardan ta'lim bermog'i lozim; u yaramasliklardan hazar qilmog'i va nopok odamlardan uzoq yurmog'i; o'zini olim va bilarmon deb ko'rsatmasligi; turli-tuman axloqqa xilof ishlarni qilmaslik kerakligini aytib o'tgan.

Hazrat Navoiy mudarrislarining, avvalo, o'z sohasining haqiqiy bilimdoni bo'lishlarini, ularning kelgusida amaldor bo'lish orzusida ilm olmasliklari hamda yetuk insoniy fazilatlar sohibi bo'lishini va bu bilan boshqalarga o'rnak bo'lishlarini orzu qiladilar. Haqiqatan ham o'qituvchi, murabbiylar o'zlarining kasbiy bilim ko'nikma va malakalarining rivojlanganligi bilan, o'zlari dars beradigan fanlarning mahoratli egasi hisoblansalar, shaxsiy insoniy, ahloqiy fazilatlar bilan esa jamoatchilik, xalq orasida mustahkam obro'ga ega bo'ladilar. Zero, o'qituvchining jamiyatda tutgan mavqeyi, obro'si uning kasbiy faoliyati mahsuldorligiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

O'z davrining buyuk davlat arbobi, shoir, tarixnavis, qomusiy olim Zahiriddin Muhammad Bobur ham bu dunyodagi barcha tashvishlardan afzalrog'i ilm va hunar, mehnat bilan shug'ullanishdir, degan g'oyani ilgari suradi. Shoir o'zining murakkab hayotini tahlil qilib, yuz berayotgan muvaffaqiyatsizliklarni, o'z hayotidagi chalkashliklarni tangrining ishi deb tan oladi va bu ziddiyatlarni yengib o'tishning garovi mehnatdir, menga bu mehnatlarni ravo ko'rdi, men shu yumushlarni ado etishim zarur, deb tan oladi, ulug' podshoh va olim Bobur va boburiylar Hindistonni idora qilish davrida turli kasb-hunar egalarini, olimu-fozillarni qo'llab-quvvatladilar, ularning ijodi uchun saroydan joy va mablag' ajratdilar. U davlat taraqqiyotida yirik shaharlar, qo'rg'onlar, bog'lar, saroylar, tarixiy o'lmas obidalar qurdirdilar va sharq madaniyatini, ma'rifatini olib kirib salmoqli hissa qo'shdilar.

XVIII-XIX asrlarning yirik mutafakkiri Zokirjon Mullo Xolmuhammad o'g'li Furqat ham ilm-ma'rifat va kasbga oid bilimlarni egallashni hamda ko'nikmalarni shakllantirishni targ'ib etgan va ulug'lagan. Mutafakkir hunar kishilarining dunyo bo'yicha taniqli kishilar bo'lishiga, ilm-fanni yaratishning poydevori ham hunarlarni egallashning mahsuli ekanligini aytib o'tadi. Aqliy salohiyat kishilarining ham oqilligi hunarlarga moyillikning natijasi ekanligini uqtirib o'tadi. Hunarlarning xilma-xilligi, hunarmandlarning faoliyati, ular yaratgan jihozlarning turli-tumanligi bilan turmushning charog'on ekanligini uqtiradi.

Sharq xalqlarining tarixiy taraqqiyotida kasb-hunarlarni egallash, zamonga mos holdagi kasbga oid bilimlarni o'rganish kishilarning faol ijtimoiy iqtisodiy hayoti mazmuni ekanligi yuqoridagilardan boshqa ko'plab asarlarda, tarixiy manbalarda ham bayon etilgan. Respublikamizning mustaqillikka erishishi tufayli halqimizning asriy orzulari ro'yoobga chiqdi, yoshlarning turli qadimiy meros hunarlarni, zamonaviy kasblarni egallashlariga qulay sharoitlar yaratildi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da kasb-hunarlarni o'rganish jarayoni alohida ta'lim bosqichi sifatida ya'ni "O'rta mahsus, kasb-hunar ta'limi" tizimi ko'rinishida rivojlantirilmoqda. Xalq orasidagi kasb-hunar

egalarining mehnatlarini targ'ib etish maqsadida har yili respublikamizda doimiy ko'rgazmalar, musobaqalar tashkil etish odat tusiga kirib qoldi. Bu ko'rgazmalarda barcha tuman, viloyatlardagi turli kasb-hunar kishilari ishtirok etmoqdalar. Yoshlarga xilma-xil kasb-hunarlarni o'rgatishning davlat dasturini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus vazirligi qoshida "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi» tuzildi. O'zbekiston respublikasi yoshlarga umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinflarini tugatganlaridan so'ng kasb-hunarlarni maxsus o'rgatish ta'lim muassasalari, ya'ni, kasb-hunar kollejlari qurish, tashkil etish ishlari Davlat Dasturi asosida amalga oshirilmoqda. Albatta, bu ishlarni amalga oshirishda bevosita Respublikamiz prezidenti I.A.Karimov, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va hokimliklar bosh-qosh bo'lmoqda. Kasb-hunar ta'limi tarbiyasining ko'p tarmoqli ekanligi, tarixiy, ma'naviy, madaniy ildizlarga ega ekanligi, uning metodologiyasi, metodikasi, nazariyasi va amaliyotining juda kengligi bu sohada jiddiy ilmiy tadqiqot, kuzatish ishlarini amalga oshirishni taqozo etadi. Bu sohada maxsus ilmiy-tadqiqot, amaliy metodik ishlar markazi hisoblangan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish instituti faoliyati ham diqqatga sazovordir. Bu institut olimlari tomonidan ishlab chiqarilgan kasb-hunar ta'limi klassifikatori (tasniflagichi) orqali respublikamizdagi yoshlarga o'rgatilishi lozim bo'lgan kasb-hunarlar ro'yxati tuzilib, tartibga solingan, kasblar, hunarlar standartlari ishlab chiqilmoqda, kasb-hunar kollejlari o'qitiladigan o'quv fanlari Davlat Ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, rejalari, darsliklar va qo'llanmalari ishlab chiqilib, tajriba-sinovlardan o'tkazilmoqda, amaliyotga tatbiq etilmoqda[8;9;20;62].

Sharq mamlakatlariga mansub bo'lgan Respublikamiz xalqlarining tarixida ma'naviy madaniy rivojlanish jarayonida yoshlarda zamonaviy kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish hozirgi davrda davlatni qurish va taraqqiy ettirish asosi sifatida umumdavlat, umumjamiyat muammosi sifatida qaralmoqda. Yoshlar ta'lim-tarbiyasining muhim qismi hisoblangan zamonaviy kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida o'qituvchi, pedagog, murabbiy, ustozlar

yetakchi hisoblanadi. Demak, o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi davlatning kelajak taraqqiyotini belgilab beradi [10;12;14;35].

Respublikamiz tarixida yoshlar tarbiyasi, ta'limi, ularni turli-tuman zamonaviy kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini o'rganish va tahlil qilishda quyidagi asosiy yo'nalishlar va omillarga e'tiborni qaratish lozim:

1. Har bir jamiyatning, tuzumning tarixiy rivojlanishida yoshlar muammosining mavjudligi va muammolar asosiy qismining yechimlari ta'lim-tarbiya jarayoniga bog'liqligi.
2. Har bir davlat taraqqiyotining asosini yoshlarning ta'lim-tarbiyasi tashkil etishi.
3. Sharq xalqlari tarixiy taraqqiyotida yoshlar ta'lim - tarbiyasi, ularga turli kasb-hunarlarni o'rgatishning ijtimoiy- siyosiy, ma'naviy, ma'rifiy masalalar sifatida qarab, katta e'tibor berib kelinganligi va bu taraqqiyot zamonaviy kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish tizimining tarixiy metodologik asosini tashkil etishini inobatga olish;
4. O'zbekiston respublikasi kasb-hunar ta'limi tizimining tarixiy metodologik ildizlari batafsil o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb ilmiy, falsafiy, pedagogik, psixologik va didaktik muammolardan ekanligi;
5. Yoshlarning ta'lim tarbiyasida, ularga turli kasb-hunarlarni o'rgatishda pedagog-murabbiylar, ustozlar mehnati yetakchi omillardan ekanligi;
6. Respublikamiz kasb-hunar ta'limi tizimi taraqqiyotida pedagog-tarbiyachilar, murabbiy ustozlar tayyorlash muammosining batafsil o'rganilishi lozim bo'lgan yo'nalishlardan ekanligi.
7. Kasb-hunar ta'limining asosiy o'quv yurtlaridan biri pedagogika kollejlari pedagog-tarbiyachilar tayyorlashning o'ziga xos tomonlarining mavjudligi, bu sohadagi ishlarning keng rivojlantirilishini talab etadi.

Demak, yuqoridagi kuzatuvlarimiz va tadqiqot natijalarimizdan ma'lum bo'ldi-ki, yoshlarda zamonaviy kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni hamda mazmuni kishilik jamiyati talab va ehtiyojlari asosida vujudga kelgan bo'lib, jamiyat taraqqiy etishi bilan kengayib, takomillashib boradi [11].

Mustaqil O'zbekistonda esa kasb-hunarga uning mazmuniga bo'lgan talab davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 1-bob 3-moddasida berilganidek, ta'lim ya'ni kasb-hunarga o'rganish O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilinganligi e'tirof etilgan. Bu borada kasb-hunar ta'limi sohasida pedagog-kadrlarni tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik va ma'naviy mohiyati to'g'risida tadqiqotning keying paragraflarida bayon etilgan[3;9].

1.2. O'quvchilarni ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyat jarayonlariga jalb etishda tarbiyaning roli

O'zbekiston Respublikasining istiqolga erishuvi hamda o'z mustaqil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo'liga ega bo'lish, xalq xo'jaligining turli soxalarida, jumladan xalq ta'limi tizimida ham o'sib kelayotgan yosh avlod ta'limg'tarbiyasi bilan bog'liq jarayonini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Hozirgi paytda, fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nixoyatda zarurdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida»gi farmonida ko'rsatilganidek, jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimizga, tarixiy an'analarimizga umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqol g'oyalariga sadoqat ruxida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning xal qiluvchi omilidir.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq. Ushbu konsepsiya ham xuddi shu maqsadda, shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga yo'naltirilgan.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Tarbiyaviy ishlar xuquq – tartibot organlari, ijodiy uyushmalar, davlat va nodavlat jamg'armalar, qo'mitalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda olib boriladi.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari,

jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san`at, adabiyot, tabiat va hokozalar bevosita ta`sir ko`rsatadi.

Yuqoridagi barcha hayotiy extiyojlarni vujudga keltirishda o`zaro hamkorlikning ta`sir doirasi orqali shaxsni tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta`minlagan holda, uni shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta`sir ko`rsatadigan muhitdan himoya qilish zarur.

Tarbiyaning bosh maqsadi – yosh avlodni ma`naviy – axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma`naviy – tarixiy an`analarga, urfg`odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etish.

Tarbiyaning asosiy vazifasi – shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoni rivojlanishini, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

Buning uchun:

- yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko`maklashish, o`z-o`zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, o`z shaxsiy turmushiga maqsadli yondoshuv, ularda reja va amal birligi xissini uyg`otish;

- o`quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy madaniy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo`lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o`stiribg`boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;

- har bir o`smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish. Inson faoliyatini turli soxalarda joriy qilib ko`rish. Bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo`llabg`quvvatlash uchun shart-sharoit hozirlash;

- insonparvarlik odobi me`yorlarini shakllantirish, muomala odobi kabi tarbiya vositalari keng qo`llanishi lozim;

- vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o`zaro munosabat – muloqotni o`rganish, o`z xalqiga, davlatiga, uning himoyasi uchun hamisha shay bo`lib turish, O`zbekiston Respublikasi va boshqa

davlatlarning ramzlariga xurmat bilan qarash, yosh avlodni O'zbekiston Konstitutsiyasiga, Bayrog'iga, Gerbiga, Madxiyasiga, Prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash;

- qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyat xislarini rivojlantirish, o'zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoiylilik, ekologik ta'lim tarbiya,

- mustaqil davlatimiz – O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va xolisona baho berishga o'rgatish. Uning tinchliksevar, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, oshkorag'ochiq tashqi siyosatiga o'z xalqining turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatini to'g'ri tushuntirmoq kerak;

- turmushda eng oliy qadriyat hisoblangan mehnatga ijodiy yondoshish fazilatlarni shakllantirish;

- sog'lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila soxibi bo'lish istagini shakllantirish;

- yoshlarimizni erkin mustaqil fikrlashga ergatish.

Tarbiyaning asosiy tizimi quyidagicha bo'lishi lozim:

- tarbiya – tarbiyalanuvchi shaxsni oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir, yosh yigitg'qizning betakror va o'ziga xolisligini xurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini e'tiborga olish;

- yoshlarda istak va imkoniyat muvofiqligi tuyg'usini qaror toptirish;

- milliylikning o'ziga xos an'analari va vositalariga tayanish;

- shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o'quvchilar o'rtasidagi bir-biriga hurmat munosabatlari, bolalar fikriga e'tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo'lish.

Amalda tarbiyaviy jarayon yaxlit va uzluksiz ishiga va turli yoshdagi, bolalarni qamrab olishga alohida ahamiyat berish lozim⁵.

⁵ Nosirho'jayev S.N va boshqalar. Ma'naviyat asoslari. Toshkent 2005.

O'smir yigit va qizlar nafaqat bo'lg'usi katta hayotga tayyorgarlik ko'radilar, balki ana shu haqiqiy hayot bilan yashaydilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning qiziqishi, istaklari, xoxish va extiyolariga suyangan holda ularning darsdan bo'sh vaqtlarida o'quvg'tarbiya jarayonini to'ldiradi. U o'quvchilarning ijodiy qobiiyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarning o'ziga xosligi shundaki, to'garak, klub dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o'smirg'yigitg'qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

«Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar» konsepsiyasi xalq ta'limi vazirligi tomonidan 1993 yili tasdiqlangan edi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX-sessiyasida qabul qilingan yangi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunlari, Respublikamizda ma'naviyatga alohida e'tibor berilayotganligidan dalolat beradi. Xukumat va vazirlik qarorlarini hayotga tadbiiq etish, ta'lim soxasini tubdan islox qilish maqsadida mazkur konsepsiyani qayta ishlashga to'g'ri keldi. Yangi taxrirdagi konsepsiyani Qori Niyoziiy nomidagi O'zTFITI olimlari guruhi, Respublika Ta'lim markazi mutaxasislari va xalq ta'limi vazirligi xodimlari tomonidan tayyorlandi.

Konsepsiyani tayyorlashda xalq ta'limi xodimlari, keng jamoatchilik fikrlari inobatga olindi.

Fuqarolik faoliyati o'z davlati oldidagi huquq va burchlarini tan olishni – jamiyat belgilagan yashash va axloq me'yorlariga ongli rioya etishni, mehnat va jamoada faollikni, ma'naviiy yetuklikni barqaror etadi:

-isloxlarning taqdiri va samarasi uchun javobgar, yurtimizning ertangi kuni va istiqboli uchun fidoyi shaxslarni shakllantirish borasida ustivor davlat siyosati yurituvchi;

- siyosiiy onglilik va ijtimoiy faollik, ya'ni davlatning ichki va xalqaro siyosatini tushunish va idrok qilish. Vatanparvarlik va baynalminallikni his etish, ijtimoiyg'siyosiiy hayotda faol qatnashishga shay turish;

- xalq davlat oldidagi fuqarolik burchi, ya'ni qonunchilik tamoyillarini, o'zining Vatan, mahalla, oila oldidagi huquq va burchlarini bilishi, ularga qat'i amal qilishi. Qonunchilikning buzulishiga murosasiz munosabatda bo'lish;

- shaxsning ma'naviy, axloqiy sifatlarini tarbiyalash;

- jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, shakllanayotgan milliy mafkurani o'quvchi – yoshlar ongiga mukammal yetkazish;

- kishilarni o'z-o'zini chuqur anglashini, mustaqillikning mohiyatini tobora teran tushunishini va uning qadriga yetishi milliy tafakkur takomillashuvini, tarixiy hurlik, mustaqillik ruhining uyg'onishini ta'minlash, ma'naviyat sohasida siyosatimizning asosiy maqsadiga aylanishini tushuntirish.

Xozirgi paytda axloqiy va ma'naviy jixatdan tarbiyaviy ishlarnig' o'smirlar orasida kuchaytirish zarur. Axloqi yo'q, inson ongli ijtimoiy shaxs bo'la olmaydi. Shuning uchun axloqiy tarbiya shaxsning har tomonlama va erkin shakllanishida asosiy o'rin egallaydi.

Maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tarbiyachilari jamoasi oldida doimo o'quvchilarga umuminsoniy axloq qoidalari asosida hayot kechirishni o'rgatishdek muhim vazifa turadi.

Fanni o'rganishga muhabbat uyg'otish, bilimga tashnalik fazilatlari axloqiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismidir. Bolalarning o'qishdagi muvaffaqiyatidan uning guruxidagi o'rni aniqlanadi, atrofdagilarning u bilan munosabati belgilanadi, o'qishdagi muvoffaqiyat-bolaning axloqiy tarbiyasini yuvori darajaga ko'taradi.

O'quvchilar qalbiga yuksak ma'naviyatlilikni shakllantirishda kitob va kitobxolikning axamiyati beqiyosligini tushuntirish zarur.

Tarbiya – bu insonni ijtimoiy tajribalar bilan, uning barcha shakllarida – bilim, xis-hayajon, estetika, odob-axloq qoidalari bilan tanishtirish va individning iski o'ziga xos jihatlarini, imkoniyatlari va layoqatlarini rivojlantirish bo'yicha faoliyat xisoblanadi.

Mana shu tarbiyaning asosiy manbaig' shaxslar bo'lib qoladig'bu jamiyat va individning o'zidir. Tarbiyalanayotgan shaxs maqsadlari va ijtimoiylik nisbatlari muammosi, tarbiya nazariyasida esa markaziy muammo bo'lib, shaxs jamiyatidan

tashqarida yuzaga kelmaydigan jonzot xisoblanadi. Jamiyat o'z navbatida shaxslardan tashkil topadi. Jamiyat shaxslar o'zaro munosabatlari jarayoni natijasi va jarayonidan iborat. Shaxssiz jamiyat yo'q va demak, jamiyat ularga bog'liq bo'ladi. Ba'zida shaxsni mikrosotsitsi, jamiyatni esa makrosotsitsi deb, ataydilar. Bu bilan materiya harakatlanishi ijtimoiy shakli, ikki asosiy tarkibiy qismi to'g'risida gap borayotganligini ta'kidlaydilar. Shaxs va jamiyatning yaqin bir-biriga bog'liqligi turli tomonlardan qaralishi mumkin. Biroq, shaxs va jamiyat bir narsa va bir xilda o'xshash bo'lishi nimasi bilan farq qiladi? Uning farqi hajmiga aloqador bo'ladimi: kichik shaxs - katta jamiyat yoki yana boshqa muhim farqlari bormi? – degan savollarga javob berish uchun o'zaro bog'liqlik. Mana shu doiradan chiqishi muhim. Mana shu ijtimoiy sub`ektlar funksiyalarining o'ziga xosligi nimalardan iborat.

Jamiyat - bu qadriyatlar o'z maktabini yaratadigan, o'zining siqilishib qolishiga har qanday sub`ektni xizmat qilishga majbur etishga intiluvchi, o'zining mavjudligini saqlab qolishi uchun shaxsni yutib yuborishga qodir, o'zini harakatlantiruvchi ijtimoiy birlikdir. Shu bilan bir vaqtda, jamiyat insonlar to'plagan madaniyatni saqlab qolish va odamga yetkazish usuli demakdir. U odamlar to'plami umumiyliги va ularning munosabatlari natijasi ifodasi hisoblanadi.

Shaxs va jamiyat ijtimoiy hayotning ikki asosiy sub`ekti sifatida ishtirok etadilar. Hatto eng qulay ijtimoiy sharoitlarda ham, ular birlashmaydilar va ular o'rtasidagi farq kamaymaydi. Ma'lum sharoitlarla ular birg'biriga qaramag'qarshi turishlari mumkin.

Tarbiya – jamiyatdagi hodisa sifatida o'sib kelayotgan avlodning jamiyat hayotida turmushi, ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati, ijodi va ma`naviyatida ishtirok etishi murakkab qaramag'qarshi ijtimoiy –tarixiy jarayon hisoblanadi. Ularning odam bo'lishlari, rivojlanishlari, shaxsiyliklari va individualliklari, jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari muhim elementlari shaxsiy baxtlarini yaratuvchilari bo'lib ishtirok etadilar. U ijtimoiy taraqqiyot va avlodlar ketma-ketligini ta`minlaydi⁶.

⁶ O'quv qo'llanma "Tarbiyaviy ish metodikasi" T.: «O'qituvchi» 1991.

Tarbiya – ijtimoiy hodisa sifatida uning mohiyatini ifoda etuvchi quyidagi asosiy belgilari bilan ifodalanadi:

1. Tarbiya o'sib kelayotgan avlodni ijtimoiy hayot va ishlab chiqarish sharoitlariga jalb etish, ular bilan eskirayotgan va hayotdan kelib chiqayotganligini almashtirish amaliy ehtiyojidan kelib chiqqan. Natijada, bolalar katta bo'ladilar, o'z hayotlari va mehnat qobiliyatini yo'qotayotgan katta avlod hayotini ta'minlaydilar.
2. Tarbiya – doimiy, zarur va umumiy kategoriya. U insoniyat jamiyati yuzaga kelishi. Bilan birga paydo bo'ladi va jamiyatning o'zi yashar ekan, u ham mavjud. U jamiyatning mavjudligi va davomiyligi va uning ishlab chiqarish kuchlarini tayyorlash va insonni rivojlantirishning ta'minlashning muhim vositasi hisoblanganligi uchun tarbiya zarurdir. Unda qonuniy o'zaro bog'liqliklari bu hodisaning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan o'zaro bog'liqliklari aks ettiriladi. Tarbiya – o'qitishning bir qismi sifatida ta'limni ham o'z ichiga oladi.

Tarbiya tizimining rivojlanishida aks ettiriladi, ya'ni jamiyatlashtirish, o'zini tarbiyalash va kasbiy ta'sir ko'rsatishda o'z ifodasini topadi. Bu jarayonlar uchta asosiy sub`ektlar shaxsi bilan shakllantiruvchi – jamiyat, individning o'zi va pedagogning bio ob`ekt bilan o'zaro munosabatlari davomida amalga oshiriladi.

Jamiyat to'g'risida to'xtalib o'tamiz. "Ijtimoiylashtirish" tushunchasi tarbiya nazariyasida juda keng foydalaniladi. Tadqiqotchilar uning qadriyatli ko'rsatmalari va tarbiyalash tamoyillariga qarab tushuntiradilar. hatto, bu borada ma'lum an`analar yuzaga kelgan, katta ilmiy material to'plangan. Sotsiologik va psixologik adabiyotlarda ijtimoiylashtirish juda faol tahlil qilinadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayotda jamiyat va shaxs rolini talqin qilish, albatta, qaramag' qarshi bo'lgan ijtimoiylashtirish konsepsiyasining shakllanishiga olib keladi. Qattiq ijtimoiylashtirish deb, ataluvchi konsepsiya tarafdorlari, funktsional maktab vakillari bu jarayonni shaxsni ijtimoiy tizimga to'la jalb etish sifatida belgilaydilar.

Sotsiologiya ijtimoiylashtirishni taxlil qilishda, "moslashish", "qulaylik", "tenglik" muvozanati tushunchalariga tayanadi.

Ularning tadqiqotlaridagi asosiy vazifa – individlarni ijtimoiy muhitga moslashtirish hisoblanadi.

Bu konsepsiyaga “yangi insonparvarlashtirish” tarafdorlari qarshi. Ular ijtimoiylashtirishda o'z qobiliyatlari va layoqatlarini yaratuvchi shaxsni hamda shaxsning o'zini amalga oshirish va o'zini namoyon etishga to'sqinlik qilayotgan elementlarni tanqidiy yengishini ko'radilar. Mentlarni tanqidiy yengishini ko'radilar.

Biroq, birinchi holatda ma'lum tarzda ishlab chiqilgan muhitga ta'sir ko'rsatish to'g'risida gap yuritilayotgan bo'lsa, ikkinchi holatda, “ijtimoiylashtirish va shaxs” tushunchalarini to'la adashtirish sodir bo'lmoqda. Ta'lim tizimidagi ijtimoiylashtirish deyarli chiqarib tashlashga, uning o'zini tarbiyalash bilan almashtirishga, tarbiyachi kasbiyligi esa shakllanayotgan shaxsning mustaqilligini ta'minlash vazifasini yuklatishga harakat qilinmoqda. Birinchi nuqtai – nazar ijtimoiy hayot taraqqiy etgan asoslarini qayta ishlab chiqarish muammosiga e'tiborni kuchaytiradi, ikkinchisi esa madaniy – ijodkorlikni shaxs ijodiy qobiliyatlariga erkinlik berishga qaratiladi.

Ma'lumki, bu ikki faramag'qarshi nuqtaig'nazardan birortasi ham amaliy hollarda tarbiya amaliyotini takomillashtirishga olib kelmaydi. To'g'ri shaxs ikki dunyosini ijtimoiy manfaatlar bilan to'la bog'lab qo'yishga yo'l qo'yish mumkin emas. Lekin, baribir jamiyat insonga ta'sir ko'rsatadi va ta'sir ko'rsatishni hisobga olmay bo'lmaydi. Ijtimoiylashtirish – muhit, jamiyatning shaxsga ta'siri demakdir. Shu bilan birga ta'sir ko'rsatish, bu yetarli bo'lmasa ham shaxsning tashkil topishida juda zarur hisoblanadi.

Biz ijtimoiylashtirish to'g'risida gapirar ekanmiz, odam ham, guruh ham, biomuhit va kosmos ham inson ko'ziga ko'rinib va uning qalbida aks etib, maqsadga muvofiq bo'lmasa ham, tasodifan insonga ta'sir ko'rsatib shaxsni shakllantiradi. haqiqatda ko'zga ko'rinmas ta'sir ko'rsatish, nazorat qilib bo'lmaydigan jarayon. Muhitning u yoki bu elementlari qason, qanday ketma-ketlikda, qanday nisbatlarda shaxs bilan munosabatlarga kirishishini bilib bo'lmaydi. hatto ularning har birini aniqlash ham mumkin emas. Biroq muhit

shaxs uchun shakllanib bo'lgan, dunyoqarashiga yod bo'lgan faoliyat sharoitlari va tamoyillarini majbur qilishda quvonchni xis etish qiyin bo'ladi. Agarda dunyoqarashi shakllanmagan bo'lsa, unda ham odamdan noqulay muhit ta'siridan qoniqishni talab qilib bo'lmaydi. Odam o'zi o'z hayotini tashkil etadi, u nima qilishini o'zi tanlaydi: dunyoga qarab xursand bo'ladi, agarda unda o'z hayotini ko'rsa.

1.3. Mehnatsevarlik va kasbga yo'naltirish tushunchasini amalga oshirishga qo'yiladigan talablar

Umumiy ta'lim va hunar maktabi islohoti yosh avlodni xalqning bunyodkorlik faoliyatiga ancha erta va ongli ravishda qo'shishga, yagona mehnat poletexnika maktabi har xil prinsiplarni izchil amalga oshirishga, o'quvchilarda ijtimoiy foydali mehnatga muhabbat va odatni tarbiyalashga, ularning g'oyaviy bilim darajasini kengaytirishga yuksak fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan.

Maktab islohotini amalga oshirish ta'limni unumli mehnat bilan qo'shish asosida maktab o'quvchilarining mehnat tarbiyasini va ularni kasbga yo'naltirishni tubdan yaxshilash, yoshlarning umumiy o'rta ta'limni umumiy kasb ta'limi bilan to'ldirish imkonini beradi.

Kasbga yo'naltirish – yoshlarni erkin va mustaqil kasb tanlashga ilmiy amaliy jihatdan tayyorlash sistemasidir. U har bir shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini ham, davlat manfaatlari yo'lida mehnat resurslarini to'laqonli taqsimlash zarurligini ham hisobga olishi kerak. Kasbga yo'naltirish tajribasi yoshlar ijtimoiy yetukligini ancha yuksak darajasini ta'sinlashi, unda umumiy ish yo'lida faol mehnat qilish qobiliyati va intilishini tarbiyalashni talab etadi. O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash jarayonida ularni bilimlar bilan ijtimoiy, unumli mehnatga va ijtimoiy munosabatlarga faol qo'shilib kelishiga intilish bilan qurollashtirish muhimdir. Bu o'z navbatida umumiy ta'lim maktabidan ixtisoslashish va ishlab chiqarish tajribasi jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan kasbga yo'naltirish shakllarini izlab topishni talab etadi.

Kasbga yo'naltirishning maqsadi yosh avlodni ongli kasb tanlashga tayyorlashdir. Buning uchun: o'quvchilarda xulq'atvor va faoliyatning ijtimoiy ahamiyatiga molik ruxiy regulyatorni shakllantirish; mehnatning har xil turlariga hurmat bilan – qarashni tarbiyalash; kasbiy jihatdan o'z-o'zini anglashda shaxsiy pozitsiyani faollashtirish, ya'ni o'quvchini ongli kasb tanlashga tayyorlash maqsadida uning shaxsiga tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi yondoshuvni amalga oshirish zarur.

Kasbga yo'naltirish kompleks, ko'p jihatli muammo bo'lib, u ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik – pedagogik, tibbiy – fiziologik jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu jihatlarning birchasi bir vaqtda, o'zaro bog'liq holda amal qilishi kerak. Kasbga yo'naltirishning ijtimoiy jihati o'quvchining bilimlar, normalar, qadriyatlarining muayyan sistemasini o'zlashtirish jarayonini nazarda tutadi, ular o'quvchiga jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida ijtimoiy kasb faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Shuning uchun o'quvchilarni kasbga yo'naltirishni dastavval jamiyatning ijtimoiy buyurmasi, shuningdek mamlakat uchun bo'lajak kadrlar tayyorlashni oldindan aytib berish, o'quvchilarda shaxsiy ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish birligi nuqtai nazaridan hal etil kerak. Iqtisodiy jihatg' tobora ko'proq qismini yoshlar tashkil etadigan mavjud va istiqboldagi mehnat rusurslaridan unumli foydalanish va ularni oqilona taqsimlashdir. Psixologik – pedagogik jihat – o'quvchilarning qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlarini aniqlash va shakllantirish, iste'dodini izlashda, shaxsning o'ziga xos xususiyatlariga, uning potensial imkoniyatlariga mos keladigan kasbni tanlashida yordam berish; maktab o'quvchilarining kasbiy jihatdan o'z-o'zini aniqlashini samarali boshqarish yo'llari va shartlarini belgilashdir. Tabiiy fiziologik jihat kishining sog'ligi va u yoki bu kasb faoliyatini bajarish uchun zarur bo'lgan alohida fiziologik vazifalari, psixofiziologik sifatlariga nasbatan maxsus talablar qo'yadi.

Kasb maorifi (kasb axboroti), o'quvchilarning amaliy faoliyatini ijtimoiy foydali, unumli mehnatning turli xillariga qo'shish, kasbga doir maslaxat, kasbga moslashuv kasbga yo'naltirish sistemasining asosiy tarkibiy fislari, boshqacha qilib aytganda, kasbga yo'naltirish ishining bosqichlari hisoblanadi.

Kasb maorifi – o'quvchilarni mehnatning xilma xil turlari, kasblarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning rivojlanish tamoyillari, mamlakat va maxsus iqtisodiy rayon xalq xo'jaligining kadrlarga bo'lgan extiyojlari bilan tanishtirishdir.

Bu jarayonda o'quvchilar o'zlariga kasblar olamida yo'l topish imkonini beradigan bilimlarni egallaydilar va tanlangan ob'ektlarga ijtimoiy baho berish asosida asosli qaror qabul qiladilar. Kasb maorifida noizchilikka yo'l qo'ymaslik

uchun o'quvchilar egallaydigan mehnat olamidagi bilimlarni bir sistemaga solish kerak. Buning uchun Y.A.Kalimov taklif etgan mehnat mavzui yuzasidan kasblarni tasniflashdan foydalanish mumkin. U mehnat mavzui yuzasidan kasblarning besh xil tipini ajratib ko'rsatadi: "inson-tabiat", "inson-texnika", "inson-inson", "inson-belgi sistemasi", "inson-badiiy obraz". Mazkur yondashuv o'quvchilarga u yoki bu faoliyat sohasiga kiruvchi kasblarni mustaqil tahlil etish, kasbdagi eng muhim narsalarni ajratib ko'rsatuvchi, mehnat mavzui, maqsadlari, qarorlari va sharoitlarini, muayyan tipdagi kasblarning odam oldiga qo'yadigan talablarini tushunib yetish kerak. Kasb maorifi o'quvchilarning yosh xususiyatlarini xisobga olib o'tkazilishi lozim.

O'quvchilarning ijtimoiy foydali, unumli mehnatning xilmag'xil turlarida o'z kuchini amaliy sinab ko'rishini faollashtirish ham kasbga yo'naltirishning muhim vazifasidir, chunki mehnat shaxsni shakllantirishning asosiy va xal qiluvchi omilidir.

O'quvchilarda kasbga bo'lgan qiziqishlarni shakllantirish – bu tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning birinchi, zarur, lekin yetarli bo'lmagan qismidir: o'quvchi ishlab chiqarishda tanlangan kasbni tezroq egallashi uchun ijodiy va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lishi, unga maktabda dastlabki "kuchni sinab ko'rish" imkoniyatini berish muhimdir⁷.

Ishlarni to'g'ri tashkil etib, ularning xususiyati va mazmunini to'g'ri belgilaganda, bu shakllarning hammasi o'quvchilarning kasbiy jihatdan o'zg'o'zini anglashida g'oyat samarali bo'ladi.

Kasbga doir maslahatda eng muhimi – kasb tanlashning keng g'oyaviy va ijtimoiy sabablarini shakllantirishdir. Shaxsiy jihatdan bu o'quvchilarda ijtimoiy burchni yuksak darajada anglash, mehnatsevarlik, umumiy ish rovida mehnat qilishga intilish kabi fazilatlarni tarbiyalashdir. Kasbga doir maslahat jarayonida o'quvchining mazkur kasbni tanlash barqarorligi darajasiga ishonch xosil qilish ham muhimdir. Bu tanlash tasodifiy, o'ylanmagan bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun kasbga doir maslahatning vazifasi o'quvchining o'ziga xos psixofiziologik

⁷ Jo'raev A.J. "Tarbiyaviy darslarni o'tish". T.: «O'qituvchi» 1994.

va shaxsiy xususiyatlari u yoki bu kasbning o'ziga xos talablariga mos kelishini belgilashdan iboratdir. U muayyan kasbni eng muhim ob`ektiv va sub`ektiv shart-sharoitlarni eng ko'p darajada xisobga olgan holda tanlashni ta`minlaydi.

Kasbga doir maslaxat odatda o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, o'quvchilarda kasb tanlash chog'ida vujudga keladigan qiyinchiliklardan kelib chiqadi. Tabiiyki, yakka tartibdagi maslahat bir o'quvchiga ham kerak bo'lavermaydi. Lekin bunday maslaxat zarur bo'lgan o'quvchi bilan jiddiy ravishda alohida ish olib borish kerak. Ma`lumki, yakka tartibda o'tkaziladigan kasbga doir maslaxatga kamida 50 % o'quvchi muhtoj bo'ladi. Ular qatoriga:

- 1) U yoki bu sabab bilan mustaqil kasb tanlay olmagan o'quvchilar;
- 2) Ota – onalari bilan ziddiyat vujudga kelgan o'quvchilar;
- 3) O'zlari tanlagan kasb yo'lining to'g'riligini tasdiqlashni istaydigan o'quvchilar;
- 4) Rivojlanishda va hattig'harakatida og'ishlar bo'lgan o'quvchilar kiradi.

Kasbga doir maslahat VII-IX sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladi, chunki ular muayyan kasbni tanlash zarurati sharoitiga qo'yilgan bo'ladilar, lekin ko'pincha bu muammoni mustaqil xal eta olmaydilar.

Kasbga doir maslaxat ma`lumot berishg'axborot tusida bo'lib, o'quvchilarning mehnat va kasb faoliyati to'g'risidagi bilimlarini kengaytirishga, maxsus ma`lumot olish va ishga joylashish imkoniyatlari xususidagi ma`lumotlarni xabar qilishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Psixologikg' pedagogik maslaxat o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish negizida unga eng mos keladigan faoliyat soxasini tanlashga yordam berishni shaxsning kasb tanlashga tayyorgarlik ko'rishida o'z faoliyatini faollashtirishni nazarda tutadi. Bunday maslaxat berish uchun o'quvchini o'qish va sinfdan tashqari ishlar jarayonida kuzatish, kasblarni, "O'quv yurtlarini yaxshi bilish asos bo'ladi".

Tibbiy – kasbga doir maslahatni V sinfdan boshlab o'tkazish kerak. Chunki xuddi shu yoshda barqaror qiziqishlar vujudga kelib, ular keyinchalik mustaxkamlanganda kasb qiziqishlariga aylanishi mumkin bo'lgan nuqsonlar

bo'lsa, uni bu haqda oldindan ogohlantirib qo'yish ma'qulroqdir. To'g'ri, buni vrach ham qilishi mumkin, lekin o'quvchi ayni vaqtda o'quvchiga kasblar olami qanchalik keng va xilma-xilligini, sog'lig'idagi nuqsonga qaramay, u har doim ko'ngliga yoqadigan ishni topa olishini ko'rsatib berishi kerak.

Kasbga moslashuv. Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar kasbga moslashuv ijtimoiy-psixologik moslashuv bilan birgalikda namoyon bo'lishini tasdiqlamoqda. Kasbga moslashuv ijtimoiy va shaxsiy sabablar mos kelganda aniq ishlab chiqarish faoliyatiga moyillikning saqlanib qolishi va yanada rivojlanishi kabi belgilar bilan karakterlanadi, u kasbga qiziqishga, mehnat mazmuniga, oilaning va atrofdagi ishlab chiqarishning ta'siriga bog'liq bo'ladi. Kasbga moslashuv o'z tabiatiga ko'ra ziddiyatli jarayon bo'lib, ishlab chiqarish olg'a suradigan bilish vazifalari, muomala shakllari va shaxsiy tajriba, texnik bilimlar, ko'nikmalar va munosabat shakllari, ya'ni o'smir ishlab chiqarishga nimalar bilan kelgan bo'lsa, o'sha narsalar o'rtasidagi ziddiyatlar uning harakatlantiruvchi kuchli bo'ladi.

Ishlab chiqarishdagi kasbga moslashuvga, barqaror kasb tanlashga tayyorgarlik maktabda boshlanadi, lekin bu yerda tugamaydi, chunki bu vazifa maktab va ishlab chiqaruvchining birgalikdagi kuch-g'ayrati bilan hal etilishi kerak.

Kasb tanlash ishlarining barcha bosqichlari doimiy aloqada va o'zaro bog'liq bo'ladi. Jumladan maslaxat berishning turli xillariga o'tishda kasb mahorati kuchayadi. Kasbga moslashuv kasb maorifi bilan ham, kasbga doir maslahat, kuchlarni amalda sinab ko'rish bilan ham o'zaro bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga u butun kasbga yo'naltirish ishida kompleks yondoshish uchun asos bo'lib xizmat qilishi kerak.

Kasbga yo'naltirish ishi – butun ta'lim tarbiya jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u darslarda bo'lganidek, sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatda ham turli usullar bilan amalga oshiriladi. Bu ishga rahbarlik qilish, uni nazorat etish va muvofiqlashtirish maktab direktori rahbarlik qiladigan maktab kasbga yo'naltirish kengashi tomonidan ta'minlanadi. Kengash tarkibiga ta'lim – tarbiyaviy ishlar

bo'yicha direktor o'rinbosari, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi, sinf rahbarlari, maktab va otaliq tashkiloti va boshqalar kiradi.

Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishni boshqarish sistemasida rejalashtirish birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. U ma'lum yoshdagi o'quvchilar tarkibiga nisbatan kasbga yo'naltirish ta'sirining izchilligi va muntazamliligini, aloqadorli va uzluksizligini ta'minlaydi, bu ta'sirning ondag'sonda bo'lishini, stixiyaliligini va tasodifiyligini istisno etadi, maktab, oila va jamoatchilikning o'quvchilarga ta'sir ko'rsatishi bir xilda bo'lishini ta'minlaydi. Kasbga yo'naltirish ishini rejalashtirish asosida tarbiya prinsipi tarbiyaning hayot bilan bog'liqligi, jamoada, mehnatda va mehnat uchun tarbiyalash yo'lga qo'yilgan bo'lishi kerak. Rejalashtirish kasbga yo'naltirishdan iborat yaxlit jarayonni o'zaro bog'langan bosqichlarga bo'lish, o'quvchilar faoliyatining har bir yosh uchun maqsadga muvofiq bo'lgan turlarini nazarda tutish imkonini beradi.

O'quvchini kasb tanlashga tayyorlash ishini tashkil etish bolaning har bir yosh bosqichidagi rivojlanishining o'ziga xosligini hisobga oladigan va uning izchilligini ta'minlaydigan muayyan sistemada amalga oshiriladi.

Kasbga yo'naltirish jarayonida o'quvchi shaxsining kasbiy jihatdan o'z-o'zini anglashi kichik yoshdan boshlab o'zaro bog'langan bir qancha bosqichlardan o'tadi. Maktab o'quvchilarining kasbiy jihatdan o'z-o'zini anglashni shakllantirishni cho'zib yuborish va bitirish imtixonlari davrigacha kechiktirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shaxsda yorqin ifodalangan va nisbatan barqaror qiziqishlarning yo'qligi odatda umuman yaxshi yetilmagan xulq-atvor bilan uyg'unlashib ketadi.

Kasbga erta yo'naltirish shaxsni mehnat kuch-qudrati sarflashga tayyorlashdan, mehnatning ijtimoiy sabablarini, boshqalarga foyda keltirish extiyojini, o'z kuchini qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lida sarflash qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir.

IV-VI sinflarda o'quvchilarning alohida e'tibori asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

O'qituvchining vazifasi o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlarga izchil va maqsadga muvofiq xususiyat bag'ishlashdir. Shu maqsadda o'qituvchi o'smirlarning kasb maorifi rejasini tuzadi, o'quvchi faollar bilan birgalikda ekskursiyalar, yurushlar natijalariga asosan to'plangan materiallardan ko'rgazmalar uyushtiradi.

O'quvchilar tanlayotgan kasbiga doir amaliy malaka va ko'nikmalarni egallash maqsadida o'quv ustaxonalarida, to'garaklarda, qiziqishlar bo'yicha guruhlarda, tashkil etilgan "Kuchni sinab ko'rish"ga qo'shiladilar; ayni vaqtda o'quvchilarni mehnat ta'lim yo'nalishini tanlashga o'quv ishlab chiqarish markazlar tayyorlaydi.

VII-IX sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda ular hunar-texnika bilim yurti sistemasida egallashlari mumkin bo'lgan ommaviy kasblarni targ'ib qilishga alohida e'tibor berish kerak.

Ayni vaqtda o'quvchilarni o'quvg'ishlab chiqarish markazlarida u tanlayotgan kelajakdagi kasb faoliyatiga mos keladigan mehnat ta'limi ixtisosini tanlashga e'tibor beriladi.

II BOB. O'QUVCHILARNI MEHNATSEVARLIK VA KASB-HUNAR EGALLASHGA YO'NALTIRISHNING MAZMUNI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

2.1. Mehnatsevarlik va kasbga yo'llash ishlariga oid tadbirlarni amalga oshirishda o'qituvchining tarbiyachilik mahorati

Uzluksiz ta'lim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh avlod (o'quvchi, o'quvchi)ni ko'ngildagidek o'qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bu g'oyat murakkab va ko'p qirrali vazifani faqat malakali pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar bilan amalga oshirish mumkin. Shuning uchun o'qituvchilik kasbi katta san'at sanaladi. Bu san'atga u yoki bu pedagog osongina, o'z-o'zidan erisha olmaydi. Buning uchun o'qituvchilik kasbiga, ya'ni sog'lom avlodning chinakkam murabbiyi bo'lishga havasi, ishtiyoqi zo'r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan, o'zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy saviyasini, pedagogik mahoratini izchillik bilan amalga oshira boruvchi, mustaqillik g'oyasi va mafkurasi bilan puxta qurollantirilgan, haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar kishilargina erisha oladilar.

Istiqlol mafkurasi tom ma'nodagi milliy mafkuraga aylanishi uchun, avvalo, inson qalbi va ongiga ijobiy ta'sir etadigan tushuncha va tuyg'ular, go'zal va hayotiy g'oyalar tizimini o'zida mujassam etishi lozim. Buning uchun ta'lim va tarbiya tizimidagi har bir o'qituvchi bilim va mahorat bilan odamlarimizning, ayniqsa, yoshlarimizning irodasini baquvvat qilish, imon-e'tiqodini mustahkamlashga xizmat qiladigan ma'naviy muhitni yaratish darkor. Yuksak ma'naviyat, siyosiy madaniyat, millatning g'oyaviy va mafkuraviy yetukligi – yurt tinchligini saqlashning muhim omilidir.

Pedagogik mahorat tug'ma talant yoki nasldan-naslga o'tadigan xususiyat emas, balki tinimsiz izlanish, ham ilmiy, ham amaliy shakldagi ijodiy mehnat mahsulidir. Bu ko'p qirrali pedagogik faoliyat zaminida ijodiy mehnat yotadi. Shuning uchun ham pedagogik mahorat hamma o'qituvchilar uchun standart, ya'ni bir qolip shaklida qolib ketadigan ish usuli emas, balki u har bir o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadi va rivojlanadi.

Darhaqiqat yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni har tomonlama kamolga yetgan barkamol inson qilib tarbiyalashda ularning ma'naviyat qirralari: iymon, e'tiqod, mehr, vatanparvarlik, do'stlik, insonga cheksiz muhabbat, muruvvatlilik, qanoatlilik, sabr-toqatlilik, sahiylik, milliy g'urur kabi fazilatlarni shakllantirish juda muhimdir. Bu mislsiz tengi yo'q ishda pedagoglarning, tarbiyachilarning, ta'lim sohasida mas'ul xodimlarning xizmati benihoya kattadir.

Tarbiya-tarixiy va ijtimoiy xodisadir. Tarbiya avlod-ajdodlarimizdan bizga yetib kelgan buyuk meros bo'lib, u komil insonni voyaga yetkazishda muximdir. Tarbiya insonlarning faoliyati jarayonida ularning ongi va irodasini o'stirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tarbiya ijtimoiy xodisa bo'lib, insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o'ziga xos mazmun va amalga oshirish shakliga egadir. Tarbiya haqida Shayx Sa'diy o'zining "Guliston" asarida shunday deb yozgan edi: "Kimda-kim yoshlikdan tarbiya olmasa, katta bo'lib baxtli bo'la olmaydi".

Adibning yuqoridagi so'zlariga amal qilgan xolda o'quvchilarni ma'naviy boy, jismoniy jihatdan sog'lom qilib tarbiyalash maqsadida dastlab ularning tarbiyaviy darajasini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun o'quvchilar qalbini odob-axloq nurlari bilan yoritmoqchi bo'lgan tarbiyachi -pedagog chuqur bilim, keng maxorat va tarbiyachilik san'atini egallamog'i kerak. O'quvchilarni tarbiyalashda umuminsoniy qadriyatlar, islom ta'limoti, o'zbek milliy urf odatlariga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyaviy jarayon ongli, mas'uliyatli faoliyat bo'lib, unda tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni komil inson qilib yetishtirishda unga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi tarbiyachi o'quvchilar jamoasining tarbiyaviy darajasini o'rganib, unga ta'sir ko'rsatish maxoratiga ega bo'lishi, tarbiyaviy tadbirlarni o'quvchilarning ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta'sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirishi, takomillashtirishi, tarbiyaviy ishlarni samaradorligini oshirishda o'z bilimini tarkibiy ravishda boyitib borish lozim.

Yurtimizda tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning asosiy maqsadi milliy istiqloq talabiga javob beradigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan ekan, ayni

paytda bu niyat tarbiyachi-pedagoglarga katta ma'suliyatni yuklaydi. Pedagogik faoliyat yuritish davr talabiga javob bermog'i lozim. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasida xuddi shu xususda to'xtalgan: "Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish xuquqiga ega.

Tarbiya uch narsaga extiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga va mashqqa degan edi ulug' olim Arastu. Ana shu g'oyalarga asoslangan xolda tarbiyachilar quyidagilarga amal qilishlari lozimdir:

- tarbiyada ulg'ayotgan inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir o'quvchi, o'smir va yosh yigitning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy xuquqiy va erkinligining e'tiborga tutilishi:

- milliylikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish, jahon madaniyatining ilg'or tajribalariga asoslanish;

- o'quvchilar faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilish, qiziqarli, to'laqonli o'quvchilar yosh jihatlariga mos hayot iqlimini yaratish, mehnat, hayriya, ijtimoiy foydali, ijtimoiy ko'ngilochar va shunga o'xshash tadbirlar tashkil etish lozimki, natijada o'quvchilar o'zlari xoxlagan ishga qo'l ursinlar, muvaffaqiyat hissini tushunib o'zlariga ishonchlari ortsin, axloqan barqaror bo'lsin.

Pedagog o'zining tarbiyachilik mahoratida milliy istiqlol g'oyasi, ozod va obod vatanga muxabbat va insonparvarlik, ma'naviy-axloqiy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, ekologik tarbiya, nafasat tarbiyasi, jismoniy tarbiya, mehnat tarbiyasi, komil insonni voyaga yetkazish kabilarga e'tibor berishi lozim.

Demak, pedagog jamiyat hayotida yetakchi o'rin tutuvchi, murakkab shaxs strukturasi ega bo'lgan insonning kasbiy qiyofasidir. Ijtimoiy turmushning barcha sohalarida erishilgan yutuqlarning zaminida uning mehnatining natijalari yotadi. Pedagoglarning pedagogik, psixologik tayyorgarligi va bilimlar integrasiyasi, muomala madaniyati, psixologik vaziyatlarni e'tiborga olish kabilari kuchli bo'lishi kerak. Yuksak saviyali, zo'r maxoratli tarbiyachilargina xalq orzusidagi barkamol insonni tarbiyalaydi. Ilm insonni yuksaklik sari olib boradi.

A.Avloniy aytganlaridek: "Ilm insonlarning madori, hayoti, porloq kelajagi, rahbari, najotiga aylangan". Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas fazilatdir. Shuning uchun avvalam bor ilmi, tarbiyali bo'lmoq har bir yosh insonning burchi.

Shu maqsadda ko'nglida eng oliy orzularni jamlab, pedagog ter to'kib ishlaydi. Ularning mehnatini hurmat qilib, bergan bilimlarni egallamoq kerak. Behbudiy aytganlaridek: "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir". Ibn Sino ta'kidlaganidek "Kimga qanday pandu nasihat qilsang, unga avvalo o'zing amal qil".

Xalqimizda tarbiyachilik san'ati qadimdan juda yuksak darajada rivojlangan. Sharq mutafakkirlari, pedagog olimlari barkamol insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligini, uning mohiyatini va mazmunini asoslab berganlar.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning milliy va nazariy asoslari mavjud bo'lib, pedagoglar o'zlarining tarbiyachilik faoliyati jarayonida;

- mustaqillik tufayli o'zbek xalqining milliy, diniy g'oyalarning keng ro'yobga chiqishi;

- ma'rifatparvarlik va jadidchilik harakatining tarixiy asoslari;

- ona tilimiz, uning sofligini asrash;

- Turkiston xalklarining avlod-ajdodlari yaratgan xalq og'zaki ijodiyotining milliy tarbiya vositasi sifatida qo'llanishini yuzaga chiqarish va keng foydalanish;

- xalqimiz yaratgan milliy urf-odatlar va an'analarimizdan keng foydalanish;

- Qur'oni Karim va xadisi sharifdagi inson kamolati xaqidagi g'oyalarni yoshlarga o'rgatish;

- ma'rifatparvar mutafakkirlar, milliy qahramonlar faoliyati, ularning asarlarini o'rganish, ilg'or tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi ta'limotlarga amal qilish va boshqalar.

Yuqoridagi yo'nalishlardan bizga ma'lum bo'ladiki, buyuk ajdodlarimiz yuksak taraqqiy topgan davlat barpo etgani va bu mamlakatda «Kuch adolatda» - degan bosh shior davlat siyosatining, jamiyat hayotining asosi bo'lganini yaxshi bilamiz. Bu g'oya odamlarga kuch bergan, ularda insof diyonatga, ezgulikka ishonch uyg'otgan. Chunki jamiyatda adolat barqaror bo'lsa, millat hyech qachon

adashmaydi. Ertami kechmi farovon turmushga erishadi. Adolat biz qurayotgan jamiyat mezoni bo'lmog'i darkor.

Albatta bunda pedagogning bilimi, mahorati beqiyosdir. Pedagogning bilim darajasi, sharqona fikr yurita bilishi, ish, bilan harakatining birligi o'quvchilarining ijodiy fazilatlarini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi. Tarbiyaning yetakchi maqsadi sifatida asrlar davomida shaxsning har tomonlama kamolatga erishuvi g'oyasi asos bo'lib qoladi. Shaxsning xar tomonlama kamolatga erishishi, bu uning ayrim qirralari yoki xislatlarining to'laqonliligini, jismoniy, axloqiy, siyosiy, estetik qarashlari yig'indisini o'z ichiga oladi. Yoshlarni falsafiy dunyoqarashiga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish muhim ahamiyatga ega, chunki ular o'z shaxsiy turmushida maqsadli yondashuv reja va amal birligiga erishadilar. O'quvchilarni umuminsoniy va vatanimiz qadriyatlarini, boy madaniyati bilan tanishtirish, ularda madaniy va diniy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarni shakllantirish, malakalarni oshirish, estetik tushunchalarni kamol toptirish pedagog faoliyatida chuqur o'rin egallashi lozim. Har bir o'smirning, yigit va qizlarning bilimdonliklarini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab ularni rivojlantirish, o'quvchilar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoit xozirlash, inson faoliyatini turli sohalarida joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

Xalqimizning "Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay" - degan naqlini o'quvchilar qalbiga singdirish mas'uliyati pedagogga topshirilgan. Tarbiya qanday bo'lmog'i kerak? Pedagogning pedagogik faoliyatining samaraga ega bo'lmog'i uchun ko'p jihatdan shaxs xususiyatlarining shakllanganligi, shaxs yo'nalishini aniqlanganligini va kasbiy maxoratning tarkib topganligi bilan xarakterlanadi.

Bugungi kunda ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitning murakkab tus olishi yoki ta'lim tizimiga nisbatan yangi talablarning yuzaga kelishi pedagoglarning o'z faoliyatlarini tubdan o'zgartirishga xamda izchil, aql-zakovatni ishga solgan xolda ish tutishni taqozo etmoqda. Bu bir tomondan davr talabi ekanini, ikkinchi

tomondan shart-sharoitga nisbatan tub burilish hosil qilish yoki shaxs faoliyatini yo'naltirishda yangicha munosabatda ish tutish talab etiladi. Chunki mamlakat ravnaqini ta'minlashda kasbiy ta'lim tizimida ijobiy o'zgarishlarning kiritilishi pedagogik hodimlarning psixologiyasida burilish yasashlik bilan belgilanadi. Pedagog o'quvchining ichki dunyosini tushunish boshqa odamlar bilan aloqa o'rnatish, o'quvchiga faol ta'sir o'tkazish, hamma bilan til topishib ketish, vazminlik, odamlarni ishontirish qobiliyati, bosiqlik va o'zini tuta bilish, talabchanlik, qat'iylik, g'ayratlilik, chidamlilik, rahbarlik va tashkilotchilik, o'zi va boshqalarning xulqini boshqarish, mustaqil va ijodiy fikrlashi muhimdir. Ko'p xollarda o'quvchilar shaxsini rivojlantirishda aniq bir mezon o'lchovini belgilab olmaydilar. Shu sababli xam pedagog o'quvchilarga kasbiy maxoratini tarkib topishida qiynaladilar. Har qanday xolatda -ham faoliyat yo'nalishini aks ettiruvchi mezon bo'lishi kerak.

Bu mezon pedagog faoliyatini doimo o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatini tug'diradi va uning samaradorligini ta'minlaydi. Pedagog shaxsiy xususiyatlaridan tashqari chuqur ilmiy saviyaga, so'zlash madaniyatiga, yuksak odob axloqli bo'lishi kerak. O'quvchilar bilan o'tkaziladigan suhbatlarni yukori saviyada tashkil qilishda, pedagog quyidagi madaniyat qirralariga ega bo'lishi kerak. Ruxiyat madaniyati - o'quvchilarning ma'naviy extiyojlariga tug'ri ta'sir ko'rsatish. Maxorat madaniyati - xar bir tadbirni zo'r quvonch qalbdan tashkil qilish. Siyosiy madaniyat - davr talabiga mos iqtisodiy, ijtimoiy bilimga ega bo'lish. Ma'naviy madaniyat - o'quvchilarning ijodiy, ma'naviy, badiiy faoliyatini tashkil qilishdir.

Bundan tashqari, pedagog o'zining tashki ko'rinishiga xam e'tibor berishi kerak, toza-ozoda, ixcham kiyinishi kerak. Bundan tashqari oliy ma'lumotli, chuqur bilim egasi o'zining fanini puxta biladigan, yurt ravnaki uchun jonini fido qilishga tayyor, o'z shogirdlaridan bilimi, malakasini ayamaydigan, o'quvchilarga aziz, do'st, sirdosh, kollejning fidokor xodimi bo'lmog'i lozimdir. Pedagog tarbiya jarayoni yanada samaraliroq o'tishi uchun turli xil ko'rgazmalardan, texnik vositalardan unumli foshdalanishi mumkin. Buyuk mutafakkirlarimizning noyob asarlari, ularning xikmatli so'zlari, turli qaxramonlik lavxalari tasvirlangan

rasmlar, odob-axlok mavzusidagi filmlar texnik vositalar sifatida tarbiyaga" ta'sir qiladi. Insonni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda o'zbek xalqining milliy va madaniy qadriyatlaridani foydalanish, manbaashunoslikka o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirishda o'quvchining ruxiyati, qiziqish jarayonidagi ijobiy va salbiy sifatlarining mavjudligi darajasiga e'tibor berish, tarbiyaviy tadbirlarning sifat va samaradorligini oshirishda yangicha ishlash metodi va shakllaridan foydalanish san'atiga ega bo'lish pedagogning pedagogik maxoratiga bog'liq. Pedagoglarning bu mashaqqatli mehnatlarini qadrlagan xolda o'quvchilarning o'zlari xam yaqin yordamchi bo'lishlari kerak. Shu o'rinda Voiz Koshifiyning "Agar shogirdlikning binosi nimaning ustiga quriladi deb so'rasalar javob bergil: Iroda va sabr toqat, nimaiki ustoz istasa, uni jon qulog'i bilan eshitib, chin ko'ngli bilan qabul qilish, e'tiqodli bo'lishdir" degan so'zlari o'rinlidir. O'quvchilar mehnatining davlat tomonidan munosib tarzda takdirlanishi ularning qobiliyatini yanada rivojlantiradi, ularning ijodiy faoliyati mukammallashadi, o'z ustida olib borayotgan ishlari takomillashadi, o'ziga berilgan mukofotga ijobiy javob beradi.

Albatta bu o'rinda xar bir tarbiyachi pedagogik tashkilotchilik mahoratiga ega bo'lishi kerak. Tarbiya jarayonini to'g'ri tashkillashtirish, darsdan so'ng o'quvchilarning bo'sh vaqtini taqsimlash kerak. Bunda o'quvchilarning ota-onalari bilan yaqindan munosabatda bo'lishlari kerak, ular bilan suhbatlarni quyidagi yo'nalishlarda olib bormog'i lozim:

1. O'quvchining xarakter xususiyati, oiladagi o'rni, mavqeyi, ruxiy xolatini o'rganishda.

2. Odob va axloqqa doir suhbat. (sharqona urf-odat, rasm-rusumlar, yangi chiqqan adabiyotlar).

3. Tarbiyasi murakkablashgan o'quvchilarning ota-onasiga maslahat berish, pedagogning yakkama-yakka suhbatlari puxta, asosli va mantiqan boy bo'lsa, ota-onani unga ishonchini oshiradi - natijada erkin dil so'zlari, maslahat, o'zaro yordam kabi bir xamkorlik xolati vujudga keladi.

Pedagog ota-ona va o'quvchilar bilan yakkama-yakka faoliyatini yo'lga qo'yish uchun ota-onalar shaxsini, oilaviy axvolini bilish kerak. Pedagog ota-onalar xaqida ma'lumotga ega bo'lgandan keyin ularning farzandlari xaqida ma'lumotni aniqlab olish muximdir. Pedagogning o'quvchilarni to'liq o'rganishi, tarbiyaviy tadbirlarni mukammal ta'sirchan uyushtirishga imkoniyat yaratadi.

Pedagog o'z faoliyatida quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

1. O'quvchilarda shakllanib kelayotgan ijobiy fazilatlarni tavsiflash, ularni bilim olishga qiziqtirish, rostguy, ma'rifatli, mexrli, do'stlik, o'z-o'zini boshqarish, mehnatga munosabatini rivojlantirish.
2. O'quvchilarning ruhiy quvvati va temperament turlarini ajrata olish.
3. O'quvchidagi ijobiy va salbii o'zgarishlarni kuzatish va sababini o'rganish.
4. O'quvchidagi yolg'on gapirish va boshqa salbiy sifatlarini aniqlash.

O'quvchilar bilan turli sayoxatlar uyushtirish, kinoteatrlarga borish, o'yinlar tashkil qilish, bayramlarga bag'ishlangan kechalar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Masalan: "Gullar bayrami" ertaligini o'tkazish o'quvchilarning estetik xis tuyg'ularini o'stiradi.

Bayramni o'tkazishdan maqsad o'quvchilarda yil fasllardagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatib borish, tabiatdagi o'simliklar dunyosi, turli-tuman gullar, ularning ustirishi va boshqalari xaqida tushinchalar berishdir.

Fan pedagoglari xar xil musobaqalar bellashuvlar o'tkazishlari xam o'quvchining bilimiga bilim qo'shadi, dunyoqarashini ustiradi, guruxdoshlari bilan aloqani mustaxkamlaydi; mustaqil fikrlashga undaydi. Kollejlarda tashkil qilingan xar xil to'garaklar xam o'quvchilarning tarbiyasiga yaxshi ta'sir qilladi. Qaysi pedagog tashkilotchi, yangiliklarga intiluvchan bo'lsa, uning o'quvchilari inoq, mehribon bo'lib o'sadilar. Ular do'stlarining, ota-onalarining, pedagoglarining, ilmning qadriga yetadigan barkamol inson bo'lib o'sib ulg'ayadilar. Davlatimizning eng buyuk maqsadi xam asli shudir.

Bu yo'nalishlarning xar biri bo'yicha aniq o'ylab chiqilgan, ilmiy jixatdan asoslangan ishlar rejasi, pedagoglar jamoasi uning o'quv-tarbiyaviy ishlari darajasidan kelib chiqadigan tizimi bo'lishi zarur.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining bilishga oid qiziqishlari ko'p qirrali qiyofalarda namoyon bo'ladi: o'quvchining harakatchan va qiziquvchanligi, o'quvchining ayrim o'quv faoliyatiga shuningdek, umuman o'qishga bo'lgan motivlari, o'quvchi shaxsining o'ziga xos belgilari va uning yo'nalishini qaror topishi ana shular jumlasidandir.

O'quvchi yosh davriga xos tabiiy faolligi, biror bir aqliy qiziqish bilan qamrab olinmasa, uni qaysi tomon boshlab ketishini oldindan aytish qiyin. Shuning uchun ham K.D.Ushinskiy "zo'rlash va majburlashga asoslangan o'qitish" o'quvchining aqliy rivojlanishiga hech qanday ta'sir ko'rsatmasligini alohida ta'kidlab o'tgan edi. Shuni ta'kidlash lozimki, qiziqishlar va motivlar o'quvchilar o'quv faoliyatlarining shakllanish darajasiga qarab shaxsni shakllantiruvchi (o'quvchining nazariy fikri, o'qish faoliyatini o'quvchi shaxsi uchun ahamiyati) dastlabki omillar bilan o'zaro murakkab munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Dars jarayonida o'quvchilarning bilim faoliyatini boshqarish bir necha omillarga bog'liq. Ularning eng asosiylaridan biri o'quvchilarni o'z faniga qiziqitira olishdir. Olimlar ta'kidlaganidek, faqat qiziqishgina psixik jarayonlar va ularning idrok, diqqat, xotira, tafakkur hamda iroda kabi vaziflariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xo'sh, o'quvchilarning o'qishga (bilishga) bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish shartlari qanday? Mohir o'qituvchi ularni darsda o'quvchilarda shakllantirish, o'quv faoliyatini faollashtirish va o'qishga bo'lgan qiziqishlarni doimo rivojlantirib borish uchun nima qilish kerak?

Mohir o'qituvchi o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishlarni shakllantirish va doimo rivojlantirib borish uchun quyidagilarga amal qilishi muhimdir:

1. O'quvchilarning bilimga intilishini, fanga umuman olganda aqliy mehnatga qiziqishlarini rivojlantirish o'quv jarayonini shunday tashkil etilishini ta'minlaydiki, unda o'quvchi faol harakat qiladi, mustaqil izlanish va yangi omillarni "kashf" etishga, muammoli vaziyatlarni o'zi hal etishga intiladi.

2. O'quv faoliyati boshqa faoliyatlar kabi faqat turlicha bo'lgandagina, qiziqarli bo'ladi. Bir xil usulda axborot berish va bir xil usuldagi harakatlar tez orada zerikishni vujudga keltiradi.

3. Fanga bo'lgan qiziqishni shakllantirishda bu fanni va uning ayrim qismlarini o'rganishning zarurligi, muhimligi va maqsadga muvofiqligini o'quvchilarga anglatish juda zarurdir.

4. O'tilayotgan material oldingi material bilan qanchalik ko'proq bog'lab tushuntirilsa, u o'quvchilarga shunchalik qiziqarliroq tuyuladi. O'quv materialini o'quvchilar qiziqadigan narsalar bilan bog'lab tushuntirish ham ularni darsga qiziqtirishda muhim rol o'ynaydi.

5. O'rtacha qiyinlikdagi o'quv materiali o'quvchilarda qiziqish uyg'otmaydi. O'quv materiali bir oz qiyinroq, lekin o'quvchilar kuchi yetadigan bo'lishi kerak.

6. O'quvchilar bajargan ishlarni tez-tez tekshirish ham ularning fanga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi.

7. O'quv materialining aniqligi, hissiyotga boyligi, o'qituvchining zavqlanib gapirishi o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini ortishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Ilg'or o'qituvchilar o'qitish metodlarini tanlashga alohida e'tibor beradilar. O'quvchilar frontal, differensiyalashgan va yakka tartibdagi faoliyatlarining umumiy jihatlari kuproq bo'lsada, ularni tashkil etish o'qituvchidan o'ziga xos ijodiy yondoshishni talab qiladi. O'quvchilik faoliyati obyektning tarkibi va o'ziga xosligi, uning har bir aniq vaziyatga ijodiy yondoshishini taqozo qiladi. Agar o'quvchiga butun sinf, guruh va alohida shaxsga nisbatan bir xil metod bilan ta'sir kursatilsa, unda tarbiya ham, ijodiy yondoshish ham barbod bo'ladi.

Ayrim hollarda o'qishga qiziqtiruvchi metodlarga, boshqa hollarda esa burch va javobgarlikni his etishni rag'batlantiruvchi metodlarga ko'proq e'tibor berish tavsiya etiladi. Tajribali o'qituvchilar o'tilayotgan mavzuning xalq xo'jaligi masalalarini hal etishdagi ahamiyatiga oid qiziqarli misollar keltiradilar, didaktik o'yinlardan, o'quvchilar faolligini rag'batlantiruvchi turli usullardan foydalanadilar. Lekin o'quvchi faoliyatida hamma narsani ravshan va qiziqarli

holda tasavvur etish qiyin. Shuning uchun ham o'qituvchi o'quvchilarda paydo bo'ladigan qiyinchiliklarni yengish uchun o'zida iroda va qat'iylikni ham tarkib topshirishi zarur.

Mohir pedagoglar ma'ruza, seminar, munozara, anjuman, o'quv sayohati, o'quvchi-maslahatchilar yordamida mustaqil dars, ko'rik-tanlov kabi dars turlaridan foydalanishga alohida e'tibor beradilar.

O'qituvchining mohirligi yuqorida qayd qilingan noan'anaviy dars turlarini o'tish texnikasining egallashida namoyon bo'ladi.

O'quvchilar tafakkurini rivojlantirishda ma'ruza darslarining ahamiyati kattadir. Tajribaning ko'rsatishicha, ma'ruzani boshlashdan oldin bu materialni o'rganishdan ko'zlangan aniq maqsadni ta'kidlash lozim. So'ngra bilimlarni egallash g'oyasini isbotlash, oqilona harakat usullarini tanlash prinsiplarni ko'rsatish zarur. Shundan so'ngina mavzuning mohiyati ochib beriladi.

O'z ishiga ijodiy yondoshadigan o'qituvchilar ma'ruza davomida dialog, savol-javob, qaytarish, ziddiyatli vaziyatlar, o'xshatishlar va boshqa faoliyat turlaridan unumli foydalanadilar.

O'quvchilarda yangi bilimlarni va qonuniyatlarni kashf etish bilan bog'liq bulgan aqliy faoliyatni rivojlantirish uchun seminar darslari muhim ahamiyat kasb etadi. Ilg'or o'qituvchilar tajribalarida ta'kidlanganidek, seminar darsda eng qoloq o'quvchi ham boshqa turdagi darsda uddalay olmaydigan miqdordagi aqliy ish bajarar ekan. Mashg'ulotlar odatdagidan tashqari noan'anaviy usullarda olib boriladi. Ba'zan u munozara yoki suhbat shaklida bulishi mumkin. Lekin o'quv materiali aniq va ishonarli qilib bayon etiladi.

Ilg'or o'qituvchilar ish tajribasida munozara darslari ham muhim o'rin egallab kelmoqda. O'qituvchilarning ta'kidlashlaricha, munozara darslarni o'tish juda katta mohirlikni talab etadi. Bunda eng avvalo o'quvchilar fikrlarini taqqoslash va ularning fikrlaridagi qarama-qarshiliklarni aniqlash muhimdir. Lekin darsning bu turini har doim qo'llash maqsadga muvofiq emas, chunki birinchidan, hamma mavzular ham munozarabop emas, ikkinchidan munozaraga tayyorgarlik ko'rish o'qituvchidan juda ko'p vaqt talab qiladi.

Tabiat qo'ynida yoki ishlab chiqarish sharoitida o'tiladigan darslar ham o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarining ortishida muhim rol o'ynaydi.

Darsning noan'anaviy shakllaridan biri ko'rik-tanlov darsidir. Bunda sinf o'quvchilari 3-4 tadan guruhlariga bo'linib, mavzuni mustaqil o'zlashtirib, darsni o'zlari bayon qiladilar. Darsning bu turi musobaqa shaklida o'tkazilgani uchun har bir o'quvchi unga sidqidildan, astoydil tayyorgarlik ko'rishga intiladi. Baholashda ham guruhdagi barcha o'quvchilar ishtirok etadilar. Bunda darsning mazmuni, metodik ta'minoti, materialni tushuntirishni o'ziga xosligiga alohida e'tibor beriladi. O'quvchilarning guruhchalarga bo'linib ishlashlari esa ularni jamoada hamkorlik bilan ishlashga, o'zaro yordam berishga o'rgatadi.

Demak, o'quv-tarbiya jarayonining natijalari pedagogning maxoratiga, tashkilotchilik faoliyatiga va kasb ko'nikmasiga bog'liq ekan. Darsning samaradorligi, ta'limiy, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi hamda kasbga yo'llash jarayonini amalga oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

-pedagogning ma'naviy-axloqiy, siyosiy, ilmiy nazariy va metodik darajasini oshirish;

- pedagogik mehnat sifatiga, darsga tayyorlanishga mas'ul munosabatni belgilash;

- barcha o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha samarali nazoratni tashkil etish;

- o'quvchilarda o'qishga mas'uliyat munosabatni tarbiyalash bo'yicha ular bilan ish olib borish, bilimlaridagi nuqsonlarning oldini olish, bilim, ko'nikma va malakalarning yuksak sifatiga ega bo'lishi uchun kurashish, bu ishga o'quvchilarning o'zini faol jalb qilishi kerak.

2.2. Mehnatsevarlik orqali kasbga yo'naltirishni amalga oshirish yo'llari va shakllari

O'quvchilarni ongli kasb tanlashga tayyorlash umumiy ta'lim maktabining muhim vazifasidir. Bu tayyorgarlik ikki omilni:

- 1) Jamiyatning kadrlarga bo'lgan extiyojini;
- 2) Yoshlarning shaxsiy qobiliyatini hisobga olib amalga oshiriladi..

Ikkinchisi, shaxsning kasbiy jihatdan o'zg'o'zini anglashi bilan bog'liqdir. O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash: ular e'tiborini targ'ib qilinayotgan kasblarga jalb etishni, mehnatning ilmiy asoslari bilan chuqur tanishishni yo'lga qo'yishni, ularni faqat zarur malaka va ko'nikmalar egallashnigina emas, shu bilan birga shaxsni, qobiliyatlarni, rivojlantirishni ta'minlovchi faoliyatga jalb etishni ham o'z ichiga oladi.

Kasbga yo'naltirish ishining dastlabki bosqichida targ'ibotchilik ishiga o'quvchilarning o'zini faol jalb etish zarur. Bu, shubxasiz, ularning ishlab chiqarish va undagi kasblar bilan batafsil tanishishlari uchun zamin yaratadi. Maktabda kasblarni targ'ib qilish vositalari sifatida kasb tanlashga bag'ishlangan leksiyalar, suhbatlar, uchrashuvlar, baxslar, kechalar, maktab radiosi orqali maxsus eshittirishlar uyushtirish, devoriy gazetalar chiqarishdan foydalaniladi. Maktab yoshlari uchun tengdoshlari –korxonalarining ishchilari va hunarg'texnika bilim yurtlari o'quvchilari bilan bevosita aloqalar juda foydali bo'ladi, umumiy manfaatlar, do'stona o'zaro munosabatlar ko'pincha maktab bitiruvchisi keyinchalik qo'shiladigan mehnat jamoasini tanlashini belgilab beradi. Kasb maorifida badiiy adabiyot alohida o'rin tutadi. O'quvchilarning o'qishi va muhokama qilishi uchun adabiy asoslarni tanlash kasbga yo'naltirish ishining muhim bo'limidir. O'quvchilarda kasbga bo'lgan qiziqishlarni shakllantirish bosqichi ularni mehnat faoliyatiga qo'shish bilan ham bog'liqdir.

Maktab o'quvchilari kasb tanlashining ijtimoiy axamiyatga molik sabablarini shakllantirish uchun darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarda katta imkoniyatlar mavjud.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish yuzasidan darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar mazmuni: kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatga molik sabablarini shakllantirishni, o'quvchilarni turli kasblar va mutaxassisliklar bilan tanishtirishni, kasbga bo'lgan qiziqishlarni rivojlantirishni, o'quvchilarning o'ziga xos mayllari va imkoniyatlarini aniqlashni o'z ichiga oladi. Shulardan kelib chiqib, yuqori sinf o'quvchilarida kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatga molik sabablarini shakllantirishga doir darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar shakllari va usullarini ko'rib chiqamiz.

Darsdan tashqari ishlar tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning xilmag'xil usul va shakllari bilan ajralib turadi. Kasblar to'g'risidagi mehnat faoliyati turlari haqidagi axborot manbaiga qarab kasbga yo'naltirish shakli va usullarini shartli ravishda uch guruhga:

- 1) Og'zaki
- 2) Ko'rgazmali
- 3) Amaliy shakl va usullarga bo'lish mumkin.

Kasbga yo'naltirishning og'zaki shakl va usullari guruhini kasblar to'g'risidagi hikoyalar, suhbatlar, leksiya, kitoblar o'qish va muhokama qilish, kitobxonlar konfrensiyalari, tegishli mavzulardagi insholar ustida ish olib borish, baxslar, turli kasb vakillari o'rtasidagi uchrashuvlar, mavzuli kechalar. Kasblar olamida og'zaki jurnalini chiqarish, o'yinlar, musobaqalar tashkil etadi.

Shahar sanoat korxonalariga ekskursiyalar, kasb faoliyatining turli tomolarini namoyon etadigan filmlar, fotoko'rgazmalar, rasmlar, jadvallarni ko'rsatish, maktablar va sanoat korxonalarida tashkil etilgan kasbga yo'naltirish burchaklari va kabinetlarida, mehnat shog'ushxurati xonalarida ko'rgazmali tashviqot vositalaridan keng foydalanish kasbga yo'naltirishning ko'rgazmali shakllari va usullari guruhini tashkil etadi⁸.

Umumiy ta'lim va hunar maktabini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda baza korxonalarining katta ahamiyatga ega ekanligiga alohida e'tibor qaratiladi. Maktab va baza korxonaning birgalikda

⁸ Jo'raev A.J. "Tarbiyaviy darslarni o'tish". T.: «O'qituvchi» 1994.

ishlashi o'quvchilarda mehnatga munosabatni tarbiyalashning, kasb tanlashning yetakchi omili hisoblanadi. O'quvchilarda u yoki bu kasbga jiddiy qiziqish ular bu kasb haqida faqat ma'lumot olibgina qolmay, shu bilan birga tegishli yo'nalishda o'z kuchlarini amalda qo'llaganlarida, ishlab chiqarish, uning yutuqlari va istiqbollari bilan tanishganlaridagina namoyon bo'ladi.

Korxonalarda maktab o'quvchilari bilan kasbga yo'naltirish ishlari ishlab chiqilgan reja asosida olib boriladi, har bir sinfga muayyan sex yoki bilim birlashtiriladi. Kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etish va o'tkazishda korxonalar ishtirok etadilar.

O'quvchilar ishlab chiqarish korxonalariga o'quvchilar sexlari kasbga yo'naltirish maqsadida o'quvchilarni umumli mehnatga jalb etishning alohida ta'sirchan shaklidir. O'quvchilar ishlab chiqarish jamoa a'zosiga mustaqil ish soxasi ishonib topshirilsa, o'shanda u o'z mehnati natijalarini ko'radi, bu natijalarni katta yoshdagi o'rtoqlar ham ijobiy baholaydilar. Bu uning quvonch, qoniqish bag'ishlaydi, o'z kuchiga ishonch hosil qiladi.

Yuqori sinf o'quvchilarida kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatga molik sabablarini shakllantirishga ko'maklashadigan darsdan tashqari tarbiyaviy ishning ayrim shakllari va usullariga to'xtalib o'tamiz.

Eng keng tarqalgan shakl – suhbatdir. Kasb to'g'risidagi suhbatga bir qancha talablar qo'yiladi. Suhbat uchun savollarni tanlash kasb vakilining o'quvchilar bilan jonli, bevosita muloqoti xususiyati bilan belgilanadi. Suhbat o'zini yaxshi biladigan, u haqda maroqli hikoya qilib beradigan mutaxassis tomonidan o'tkazilishi kerak. Suhbatda aniq misollar asosida kasbning xususiyatlarini, uning uchun xos bo'lgan qiyinchiliklarni, ijodiy o'sish imkoniyatlarini ochib berish muhimdir. Suhbatda kasbning ishlab chiqarish mazmuni, masalan, korxonaga ekskursiya qilganpaytda o'quvchilar mehnat qurollari, buyumlar bilan bevosita tanishishlari, ularning ishini kuzatishlari mumkin bo'lgan paytdagidan qisqaroq yoritiladi. Suhbat quruq bo'lmasligi, har bir qoidani misollar, faktlar bilan mustaxkamlash zarur. Suhbatga tashviqot-targ'ibot

yo'nalishi bermaslik kerak – maktab o'quvchilari kasb tanlashning to'la erkinligi imkoniyatini xis etishadi.

Maqsadli yo'nalishga muvofiq suhbatlar tanishtiruvchi va yo'naltiruvchi suhbatlar bo'lishi mumkin. Tanishtiruvchi suhbatlar muayyan kasblarning tipik xususiyatlari haqida tasavvur beradi va ko'pincha ko'p miqdordagi o'quvchilar bilan o'tkaziladi.

Yo'naltiruvchi suhbatlar alohida ixtisoslar bilan batafsil va aniq tanishtiradi, ularda o'quvchilarning bilim va qobiliyatlari mazkur mehnat faoliyatining terli talablari bilan albatta taqqoslanadi, kasb tanlashdagi tipik xatolar ko'rsatiladi. Yo'naltiruvchi suhbatlar o'quvchilarning guruxi va har bir o'quvchi bilan yakka tartibda o'tkaziladi.

Kirish suhbatlari katta ahamiyatga ega. Ular o'quvchi kasb tanlash sohasida amal qilishi kerak bo'lgan asosiy prinsipial qoidalar bilan tanishtiradi.

Suhbat o'quvchiga kasb xususiyatlarini qanchalik chuqur va his-xayajonli qilib yetkazmasin, maktab o'quvchisiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari jihatdan mazkur kasb vakillari bilan uchrashuvdan keyinda turadi. O'quvchilar muayyan kasb egalari bilan muloqotda bo'lib, ular bilan bevosita ishchi joylarida, mehnat jamoasida uchrashib, o'zlarining bo'lajak kasblarini muhim bir tarzda emas, balki aniq insonda ko'rishadi, uning turmush yo'lida, mehnat tajribasiga chuqur kirib borishadi, kasb afzalliklarini yorqinroq ko'rishadi. Bunday uchrashuvlar cho'g'ida vujudga kelgankoplab savollarni aniqlash uchun katta imkoniyat yaratiladi. Bu tarbiyaviy shakldan foydalanib, o'quvchilarni ko'pgina ishchi kasblari mutaxassislari bilan tanishtirish mumkin.

O'quvchilarning kasblar haqidagi referatlari ularning bilish faoliyatini faollashtirishning shakllaridan biri bo'lib, ular o'quvchilar tafakkuri va mustaqilligining rivojlanishiga ko'maklashadi.

Referatni tayyorlash o'quvchidan uzoq davom etadigan ishni: maxsus adabiyotlarni o'qishni, maxsus kasb mutaxassislari bilan uchrashuvlarni, zarur tadbirlarda ishtirok etishni talab qiladi.

Maktab o'quvchilarining kasbga munosabatlarini hayotning ma'nosini axloqiy tushunishlarini aniqlash, ularda mehnat kishilariga chuqur hurmatni, ma'naviy prinsplar va xulq'atvor normalarini tarbiyalash maqsadida kasbga yo'naltirish ishida iste'dod to'g'risida, hayot mazmuni haqida munozalar o'tkazish shaklidan foydalanish kerak.

Munozaralar qatnashchilardan bir qancha kasblar, jamiyatimizning iqtisodiy va madaniy rivojlanishi haqida asosli, ancha keng bilimga ega bo'lishni talab qiladi. Munozarada o'quvchi tanlayotgan kasbining afzalliklarini, o'z qobiliyatlarining ushbu kasbga mosligini ishonchli tarzda ko'rsatib berishi, muxokama qilinayotgan hayotiy masalalar yuzasidan muloxazalarning to'g'riligini isbotlash kerak. Munozara – tarbiyaning ancha murakkab shaklidir. Munozaraga tayyorgarlik va uni o'tkazish metodikasi boshqarib boruvchidan ham, uning qatnashchilaridan ham muammo bilan oldindan chuqur tanishishni, maxsus adabiyotlarni o'qishni, muxokama uchun taklif etilayotgan masalalarni har tomonlama puxta o'ylashni talab etadi. Bu masalalarning har biri o'quvchining tushunishi uchun yaqin bo'lishi, ularda qiziqish uyg'otishi, munozara elementiga ega bo'lishi kerak. Munozara mavzui o'tkir va muammoli bo'lishi, o'z ta'rifida bir necha xil xal etish imkoniyatini mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. Maktab o'quvchisini hayotga, mehnatga va kasb tanlashga tayyorlash munosabati bilan quyidagi baxs mavzularini tavsiya etish mumkin: “Sening tasavvuringda”, “Hayotdagi o'rin”, ifodasi nimani bildiradi?”, “Kelajak kishisi qanday bo'ladi?” Zamondoshlaringdan kimga sen kelajak kishisi belgilarini ko'ryapsan?, “Sening hayot yo'lini tanlashing – faqat shaxsiy ishingmi?”

Munozarani o'tkazish rahbardan katta pedagogik odobni, bildirilayotgan fikrga hurmatni, qatnashchilarning nuqtai nazarlari mohiyatini ochib berishni va munozaraning borishini, qarashlarning to'qnashuvi natijasida vujudga keladigan ziddiyatli vaziyatni xal etishga qaratishni talab qiladi. Munozara qarashlar va shaxsiy fikrlarni erkin ifodalashni nazarda tutadi. Qatnashchilarning samimiyligi bir-birlariga va rahbarlarga ishonishiga asoslangandir.

Munozara uni olib boruvchining qisqacha kichik soʻzi bilan boshlanadi. Unda mavzu nimaga chiqarilgan mavzu yuzasidan ayrim nuqtai nazarlar keltiriladi. Ayrim fikrlarning muayyan darajada adolatli ekanligi koʻrsatiladi, bu fikrlar izchil rivojlantirilganda bir-biriga mos kelmay qolishi mumkin. Munozarani olib boruvchi kirish soʻzida bu fikrlarga baho bermaydi.

Munozaraning barcha qatnashchilariga “kim haq?” degan fikrga oʻz munosabatini bildirish taklif etiladi. Yakunlovchi soʻzda qatnashchilarning koʻpchiligiga maʼqul boʻlgan xulosalar va eʼtiroz uygʻotmaydigan fikrlar taʼkidlanadi, oʻylab koʻrish kerak boʻlgan va jamoa fikrini shakllantirishga muvaffaq boʻlinmagan savollar oʻrtaga qoʻyiladi.

Munozara bir tomondan, yakun chiqarish ham hisoblanadi, chunki u jamoatchilik fikrini ifodalash va mustaxkamlashga koʻmaklashadi, boshqa tomondan esa, nuqsonlarni aniqlash, kasb tanlashdagi ijtimoiy axamiyatga molik sabablarni, maktab oʻqituvchisining faol fuqarolik mavqeini tarbiyalash yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni yangidan qayta koʻrib chiqishga majbur qilishi mumkin. Maktab oʻquvchilarining, ayniqsa oʻsmirlarning shaxsiy faolligini uygʻotish uchun ularni kasblar bilan tanishtirish jarayonida joziba baxsh etadigan oʻyin jixatlari kiritiladi. Konfrensiyalar, otalik tashkiloti vakillari bilan uchrashuvlarni oʻziga xos “kasblarni himoya qilish” tarzida oʻtkazish tobora keng ommalashmoqda.

Kichik yoshdagi oʻsmirlar bilan ishlashning faol shakllarini izlash musobaqa jihatlarini oʻz ichiga olgan, qatnashsilardan faollik, tashabbuskorlikni talab etadigan “oʻzingni sinab koʻr” oʻyinini tashkil etishga olib kelishi mumkin. Oʻyin toʻrt bosqichga boʻlinib, musobaqalashayotgan sinflarning komandalari topshiriqlar olishadi va uni bajarish jarayonida muayyan kasb bilan tanishishadi. Kasb tanlashning anʼanaviy tadbirlari – otaliq korxonasiidagi kasblar toʻgʻrisida insholar yozish, korxonada mehnat shon-shuxrati muzeyiga ekskursiya oʻtkazish oʻyinga kiritilganda, oʻquvchilarda katta qiziqish uygʻotadi. “Oʻzingni sinab koʻr” oʻyini puxta oʻyilgan, birinchidan, oʻsmirlarni faollashtirishga, ularda oʻyinda oshirilgan his-tuygʻu holatini qoʻllab-quvvatlashga va ikkinchidan, eng muhimi, oʻsmirlarda kasblarga ijodiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan “pedagogik

rejussura”ni o’z ichiga oladi. Barcha kasbga yo’naltirish tadbirlarining mavzui juda xilma-xil bo’lishi mumkin, lekin u har doim o’quvchilarning qiziqishlariga, ularning umumiy tayyorgarlik darajasiga mos bo’lishi kerak.

Maktab o’quvchilarini kasb tanlashga tayyorlashda, bu tanlashning ijobiy sabablarni shakllantirishda o’quvchilarning tashabbuskorligi va mustaqilligini eng ko’p darajada rivojlantiradigan, ularni faollikka da’vat etadigan, qiziqtiradigan kasblar bilan tanishtirishga, mazkur kasb kishisiga foydali bo’lgan shaxsiy sifatlarni tarbiyalashga qaratadigan, mehnat faoliyatining muayyan turiga mayl va qobiliyatlarni faol rivojlantirishga ko’maklashadigan kasb tanlashga yo’llashning shakllaridan foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatga molik sabablari maktab o’quvchisining oliy insoniy maqsadlar va ehtiyojlarga ijtimoiy yo’nalishlarini kuchaytiradi. Yuqori sinf o’quvchilarining kasb tanlashdagi pozitsiyasining mustaxkamligi - bu mehnat faoliyatidagi munosabat yo’l-yo’riqlarining shunday darajaga yetkazilgan sistemasining barqarorligidan iborat bo’lib, bunda moddiy ishlab chiqarish sohasining turli kasblarga ijobiy yoki salbiy munosabat muayyan kasbni tasodifiy emas, balki e’tiqod bilan tanlashni belgilab beradi.

Maktabning ota-onalar bilan olib boradigan ishi o’quvchilarni kasbga yo’naltirish sistemasidagi muhim bo’g’indir. Tajribaning ko’rsatishicha, ota-onalar o’z farzandlarining muayyan hayotiy va kasb rejalarini belgilashda faol ishtirok etadilar. Shu bilan birga kasb tanlash va o’qishni davom ettirish yo’llarini belgilash o’quvchilarning o’zlari uchun ham, ularning ota-onalari uchun ham juda qiyin vazifa ekanligi ma’lum. Ota-onalarning maslahatlari ko’pincha xalq xo’jaligi turli soxalarining kadrlarga bo’lgan real ehtiyojlariga to’g’ri kelmaydi. Ular farzandlarining qiziqishlari va qobiliyatlarini har doim ham bilaverishmaydi va ob’ektiv baholashmaydi. Ota-onalarning istaklari va bolalarning kasb niyatlari ko’p hollarda bir biriga mos kelmaydi. Bularning barchasi bolarni mehnatga va tanlashga tayyorlashda oilaga yordam ko’rsatishga qaratilgan ota-onalar bilan maxsus ishlashni tashkil etishni zarur qilib qo’yadi⁹.

⁹ Munavvarov A.K. “Oila pedagogikasi” T.: «O’qituvchi” 1994

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishiga ota-onalarni tayyorlashni o'qituvchi umummaktab va sinflarning ota-onalar komitetlari amalga oshiradi. Barcha maktablar va sinflarda tuziladigan ota-onalar komitetlari ota-onalar bilan o'quvchilar, maktab bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in bo'lib maydonga chiqadilar. Ular o'quvchilarning mehnat tarbiyasi va ularni kasbga yo'naltirishdagi birgalikdagi faoliyatini muvofiqlashtiradilar¹⁰.

Ota-onalar komitetlari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshiradilar: turli kasblarning vakillari bilan uchrashuvlarni tashkil etishga va sinf rahbarlariga va o'qituvchilarga yordam ko'rsatish; korxonalariga kasb yo'naltirishga doir ekskursiyalar o'tkazish, kasbga yo'naltirishga doir ishlarga doir ota-onalarni jalb etish; kasb tanlash kabinetlarini bezitishda maktabga yordam ko'rsatish. Kasbga yo'naltirish masalalari yuzasidan pedagogik bilimlarni targ'ib qilish, maktabning o'quvchilar bilan kasbga yo'naltirishga doir ishlariga ota-onalarni faol jalb etish maktabning ota-onalar bilan kasbga yo'naltirish bo'yicha olib boriladigan ishining asosiy yo'nalishlaridir.

Ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ib qilish, kasbga yo'naltirish masalalarini keng yoritishni ko'zda tutadi. Bu yerda, bir tomondan, bolaning rivojlanishi, uning yosh xususiyatlari, uning qiziqishlari va mayllarining shakllanishi, mehnatga muhabbatni tarbiyalash yuzasidan oilaning ishi to'g'risidagi leksiya va suhbatlar, boshqa tomondan, hozirgi paytda va istiqbolda xalq xo'jaligi va kadrlarga bo'lgan ehtiyojining rivojlanishi to'g'risidagi iqtisodiy bilimlarni targ'ib qilish, ota-onalarni davlat alohida ehtiyoj sezayotgan turli kasblar bilan tanishtirishni, kasb egallash yo'llarini nazarda tutadi.

Kasbga yo'naltirish masalalari yuzasidan ota-onalarning pedagogik maorifini amalga oshirish ota-onalar jamoatchiligini ancha faollashtirish, ularning oiladagi tarbiya uchun mas'uliyatini kuchaytirish, ularni tarbiyaviy jarayonga kengroq jalb etish imkonini beradi. Kasb tanlash masalalari yuzasidan pedagogik bilimlarni targ'ib qilish ota-onalarni kasb yo'lini tanlashda farzandlariga yordam ko'rsatishga tayyorlashning asosiy yo'llaridan biridir. Ota-onalar o'tkazilayotgan

¹⁰ Yo'ldoshev J. "O'qituvchi ma'naviyatini shakllantirish" T.: "Sharq" 2000.

tadbirlarning nazariy va metodik darajasini oshirish uchun ular bilan qo'shimcha ish tashkil etiladi. Seminarlar va metodik maslahatlar o'tkaziladi, ularni maktab rahbariyati olib boradi. Ota-onalarning kasbga yo'naltirish ishida ishtirok etishining samarali shakllarini izlash maktab pedagoglar jamoasi, hamkorlikda olib boriladi.

Kasbga yo'naltirish masalalarini muvaffaqiyatli hal etish uchun pedagogik targ'ibot va ota-onalarning kasb maorifidan tashqari oila bilan yakka tartibda ish olib borish ham zarur. Bolaga ta'sir ko'rsatishning shakllari, usullari va vositalarini belgilashda ota-onalarga aniq yordam ko'rsatish bu boradagi asosiy vazifadir.

Ota-onalar bilan yakka tartibda ish olib borish shakli muayyan qiyinchiliklar tug'dirsa ham, eng ommalashgan ish shakli hisoblanadi. Uni o'tkazish uchun o'qituvchi oldindan tayyorgarlik ko'rishi kerak. Avvalo ota-onalar bilan suhbatda aniqlab olish lozim bo'lgan masalalar doirasini belgilash lozim. Suhbat chog'ida o'quvchilar va ota-onalarning niyatlari aniqlanadi, oila o'rganiladi, busiz oilada kasbga yo'naltirish ishini o'tkazib bo'lmaydi.

Ota-onalar bilan boriladigan yakka tartibdagi ish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'tkazilishi lozim: kasbga yo'naltirish yuzasidan psixologik-pedagogik bilimlar bilan tanishtirish; kasblar olami va ularni egallash yo'llari, ularning farzandlari tanlayotgan tegishli kasblar bilan tanishish.

Maslahat ishini o'tkazish bir necha bosqichdan iborat bo'lib, ularda ota-onalar bilan yakka tartibdagi ish guruh tarzida o'tkaziladigan ish bilan qo'shib olib borilishi kerak. Jumladan, barcha guruhlar bilan shunday suhbatlar o'tkazish kerakki, ularning mazmuni o'z ichiga quyidagilarni olishi kerak:

a) psixologiya va pedagogikaning o'quvchilarning yosh xususiyatlari bilan tanishish imkoniyatini beradigan asosiy qoidalar;

b) xalq xo'jaligining ehtiyojlari, o'quv – ishlab chiqarish kombinatida o'rganiladigan kasblar to'g'risidagi ma'lumot.

Ota-onalar bilan yakka tartibda ish olib borish ular farzandlarining kasbiy jihatdan o'z-o'zini anglashida ota-onalarni faollashtirishning eng samarali shakli va o'quvchilarni kasbga yo'naltirishni takomillashtirish vositasi hisoblanadi.

O'qituvchi kasbga yo'naltirish ishi yuzasidan oila bilan ish olib borganda, birinchidan, kasb tanlashga oila ta'sirining umumiy tamoyillarini bilishga, ikkinchidan ongli kasb tanlashni bilishga asoslanadi.

III.BOB. O'QUVCHILARNI KASBGA YO'LLASH VA MEHNATSEVARLIK RUHIDA TARBIYALASHGA OID TAJRIBA-SINOV ISHLARI TAHLILI

3.1. O'quvchilarni kasbga yo'llash va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik mahoratning o'rni

Jamiyat-shaxs ehtiyojlari va rivojlanishlarining uzviy mutanosibligiga erishish bir tomondan, o'quvchi-yoshlarni ongli ravishda kasb-hunar tanlashga yo'naltirishni, ikkinchi tomondan esa ularni kasbiy layoqati va kompetentligini shakllantirish muammolarini o'z ichiga qamrab oladi. Bu masalalarni yechimini topishda asosan umumta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish ishlari, jumladan o'quvchilarni mahalliy mehnat resurslari to'g'risida tasavvurlarni shakllantirish muammolarini hal etish vazifalarini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari, shuningdek «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»[3], Vazirlar Mahkamasining qaror va ko'rsatmalariga binoan tashabbuskor, mas'uliyatli, mustaqil fikrlovchi ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash, ularni ta'lim jarayoni kasbiy muhitiga tezroq moslashuvini ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqish, amaliy tavsiyalar va metodikalar majmuasini yaratish, shuningdek bunda o'qituvchilar pedagogik mahoratining ahamiyatini belgilash dolzarb vazifalardan biriga aylanib qoldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori malakali o'qituvchilar tayyorlashga qaratilgan davlat siyosatining yangi bosqichi vazifalarini o'z ichiga olgan.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» amaliyotga kiritilganidan bugungi kungacha barkamol avlod tarbiyasi sohasida katta yutuqlar qo'lga kiritildi, yangi-yangi ilmiy-uslubiy natijalar olindi. Ammo shu bilan birgalikda umumta'lim maktablarida o'qiydigan iqtidorli yoshlarni izlash, tanlash va ularni kasbiy faoliyatning turli yo'nalishlarga bo'lgan moyilliklarini e'tiborga olgan holda uzluksiz ta'limning yuqori bosqichlari-akademik lisey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalariga ta'lim

olishlarini davom ettirishlariga amaliy-uslubiy, shuningdek iqtisodiy-ijtimoiy yordamlar ko'rsatish mexanizmlari to'lasincha ishlab chiqilgan deb bo'lmaydi.

Bu muammolarni o'rganish maqsadida biz Samarqand temiryo'l kolleji hamda Samarqand shahridagi maishiy xizmat profilidagi kasb-hunar kollejlari o'quvchi-yoshlari o'rtasida so'rovnomalar, suhbatlar o'tkazdik. O'tkazilgan so'rovlar natijalariga ko'ra aksariyat o'quvchilar bugungi kunda nufuzli kasblarni egallashga bo'lgan qiziqishlari ko'proq namoyon bo'ldi. Shuningdek ko'pchilik o'quvchi-yoshlar hozirgi vaqtda o'zlari tahsil olayotgan kasb-hunar kollejaridagi mutaxassisliklariga o'zlarining istak-hohishlarisiz, ya'ni ota-onalar va yaqinlarining tavsiyalari hamda moddiy shart-sharoitlar va imkoniyatlari doirasida tahsil olayotganligi ta'kidlandi.

Samarqand temiryo'l kollejiga qabul qilingan o'quvchilarining hujjatlari o'rganilganda o'quvchilarning aksariyati viloyatning muayyan hududidan ekanligi ko'zga tashlanadi.

Bundan tashqari umumta'lim maktablarining bitiruvchi sinf o'quvchilari bilan o'tkazilgan so'rovlarda ularning ko'pchiligi yuridik, hisobchilik, moliya, bank ishi, stomatologiya, farmasevtika va shu kabi kasb-hunar kollejarida o'qishni davom ettirishlari aytib o'tildi. Xuddi shu kabi kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining oliy ta'limda davom ettirishi rejalashtirilgan mutaxassisliklari ham o'zlari o'qiydigan mutaxassislikdan yiroq bo'lgan sohalardir.

Bu holatlarning asosiy sababi umumta'lim maktablarida kasbga yo'llash tizimidagi kamchiliklardir.

To'g'ri tanlangan kasb shaxsning iqtidori, qobiliyatini yuzaga chiqarishdan tashqari, jamiyat ravnaqida ham katta ahamiyatga ega[3]. Shuning uchun ham umumta'lim maktablarida fan o'qituvchilari, sinf rahbari va maktab psixologlari o'quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlarini atroflicha o'rganib, ularni kasbga yo'naltirishlari va bu faoliyat mavsumiy bo'lmasdan, doimiy xarakterga ega bo'lishi lozim. O'quvchilarni kasb tanlashlarini shakllantirishda esa shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali iqtidorli yoshlarni tabalashtirilgan sinflarga bo'lish o'qitish sifati va samaradorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

3.2. Tajriba-sinov ishlarining borishi va olingan natijalar tahlili

O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash ishini tashkil etish bolaning har bir yosh bosqichidagi rivojlanishning o'ziga xosligini hisobga oladigan va uning izchilligini ta'minlaydigan muayyan sistemada amalga oshiriladi.

Kasbga yo'naltirish jarayonida o'quvchi shaxsining kasbiy jihatdan o'z-o'zini anglashni kichik yoshdan boshlab o'zaro bog'langan bir qancha bosqichlardan o'tadi. Maktab o'quvchilarining kasbiy jihatdan o'z-o'zini anglashini shakllantirishning cho'zib yuborish va bitirish imtixonlari davrigacha kechiktirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shaxsda yorqin ifodalangan va nisbatan barqaror qiziqishlarning yo'qligi odatda umuman - o'rlikka, yaxshi yetilmagan xulq-atvor bilan uyg'unlashib ketadi.

Kasbga erta yo'naltirish shaxsni mehnat kuch g'ayrati sarflashga tayyorlashdan, mehnatning ijtimoiy sabablarini, o'z kuchini qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida sarflash qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir.

IV-VI sinflarda o'quvchilarning alohida e'tibori kasb tanlashning axloqiy, g'oyaviy asoslarini shakllantirishga qaratiladi.

Kichik o'smirda axloqiy ong faol rivojlangan bo'ladi, unda hayotiy va kasb ideallari tug'iladi, o'zini shaxs sifatida anglash extiyoji namoyon bo'ladi. Bu yoshdagi o'quvchilarga kattalarning mehnati to'g'risidagi tasavvurlar doirasini kengaytirishda, faoliyatining turli soxalariga qiziqishini shakllantirishda yordam berish zarur, shuning uchun kasb maorifi ishchilar va ota-onalarning faol yordamida atrofdagi ishlab chiqarish korxonalarini va xizmat ko'rsatish soxasi bilan tanishtirishga doir ekskursiyalar, ommaviy ishchi kasblari vakillari, mehnat qahramonlari va ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlar, mehnat inqilobi va jangovor shon-shuxrat joylari bo'ylab yurishlar orqali amalga oshiriladi. Bunga kasb tanlash to'g'risidagi gruppaviy suhbatlar, masalan: "Kasb tanlash uchun o'zi haqida nimalarni bilish kerak?, nima uchun?" va boshqa mavzularda suhbatlar o'tkazish yordam beradi.

O'qituvchining vazifasi o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlarda izchil va maqsadga muvofiq xususiyat bag'ishlashdir. Shu maqsadda o'quvchi o'smirlarning

kasb maorif rejasini tuzadi, o'quvchi faollar bilan birgalikda ekskursiyalar, yurishlar natijalariga asosan to'plangan materiallardan ko'rgazmalar uyushtiradi, o'quvchilar bilan guruh va yakka tartibdagi suhbatlar grafigini tuzadi, eng yaxshi kasbga yo'naltiruvchilar o'quvchilar guruhi uchun konkurslar o'tkazish metodikasini, kasb tanlashga bag'ishlangan o'quvchilar yig'ilishlari tematikasini ishlab chiqadi.

O'quvchilar tanlayotgan kasbga doir amaliy malaka va ko'nikmalarni egallash maqsadida o'quv ustaxonalarida, to'garaklarda, qiziqishlar bo'yicha guruhlarda, maktab o'quvchilari mehnat birlashmalarida maxsus tashkil etilgan "Kuchni sinab ko'rish"ga qo'shiladilar; ayni vaqtda o'quvchilarni mehnat ta'limi yo'nalishini tanlashga o'quv ishlab chiqarish kombinati tayyorlaydi.

VII-IX sinflarda o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashiga, ularda kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatiga molik sabablarini, ularning shaxsiy imkoniyatlariga haqiqatda o'zlari baho berishini shakllantirish, o'quvchi tanlayotgan kasb uchun kasb-hunar kollejarida, o'quv ishlab chiqarish kombinatida, oliy o'quv yurtida o'qishni davom ettirish va kasb egallash yo'llarini tanlash uchun zarur bo'lgan kasb ahamiyatiga molik sifatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Ta'lim jarayonida ular sanoat qanday ahamiyatga ega ekanligi bilan tanishadilar.

VII-IX sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda ular hunar-texnika bilim yurti sistemasida egallashlari mumkin bo'lgan ommaviy kasblarni targ'ib qilishga alohida e'tibor berish kerak. Ayni vaqtda o'quvchilarni o'quv-ishlab chiqarish kombinatida u tanlayotgan kelajakdagi kasb faoliyatiga mos keladigan mehnat ta'limi ixtisosini tanlashga e'tibor beriladi.

Shularga asosan 8-sinf o'quvchilari o'rtasida faqatgina 8^a-sinf o'quvchilariga 12 ta kasb bilan tajriba boshida murojaat qildik. Savol-javoblarda 30 nafar o'quvchilar qatnashdi. Tadqiqot boshida 30 nafar o'quvchi ishtirokida ularning shaxsiy imkoniyatlariga haqiqatda o'zlari baho berishini shakllantirish, o'quvchi tanlayotgan kasb uchun o'rta hunar texnika bilim yurtida, o'quv ishlab chiqarish kombinatida, oliy o'quv yurtida o'qishni davom ettirish va kasb egallash yo'llarini

tanlash uchun zarur bo'lgan kasb ahamiyatiga molik sifatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor berildi.

VII-IX sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda ular kasb-hunar bilim yurti sistemasida egallashlari mumkin bo'lgan ommaviy kasblarni targ'ib qilishga alohida e'tibor berish kerak. Ayni vaqtda o'quvchilarni o'quv-ishlab chiqarish kombinatida u tanlayotgan kelajakdagi kasb faoliyatiga mos keladigan mehnat ta'limi ixtisosini tanlashga e'tibor beriladi.

Shularga asosan 8-sinf o'quvchilari o'rtasida faqatgina 8^a-sinf o'quvchilariga 12 ta kasb bilan tadqiqot boshida murojaat qildik (2-ilova). Savol-javoblarda 30 nafar o'quvchilar qatnashdi. (8^a-sinf)

№	Kasb nomlari	Kasblarni tanlagan o'quvchilar soni	%	O'z xoxishi bilan	%	Ota-ona tavsiyasi	%
1.	O'qituvchi	5	17	3	10	2	6.6
2.	Bank xodimi	1	3.3	-		1	3.3
3.	Duradgor	1	3.3	-		1	3.3
4.	Shifokor	3	10	2	6.6	1	3.3
5.	Ichki ishlar xodimi	1	3.3	1	3.3	-	
6.	Huquqshunos	4	14	2	6.6	2	6.6
7.	Haydovchi	2	6.6	2	6.6	-	
8.	Sartarosh	1	3.3	-		1	3.3
9.	Tadbirkor	6	6.6	3	10	3	10
10.	Oshpaz	2	6.6	1	3.3	1	3.3
11.	Tikuvchi	3	10	2	6,6	1	3.3
12.	Chilangar	1	3.3	-	-	1	3,3

Tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun Samarqand shahridagi 49-sonli umumta'lim maktabining ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasi (2012 yil 29 avgustda tasdiqlangan) va o'qituvchilarning dars konspektlari tahliliy o'rganib chiqildi.

O'qituvchilarning dars konspektlarida darsning tarbiyaviy, ta'limiy va rivojlantiruvchi maqsadlari bilan birgalikda kasbga yo'llash bo'yicha maqsadlar kiritildi.

Biz tadqiqot ishimizda qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlari rejasi asosida kasb tanlash ishlari bandi bo'yicha muqobil tadbirlar rejasi ishlab chiqdik (1-ilova).

Ushbu muqobil dasturda ko'zda tutilgan tadbirlar amalga oshirildi, shuningdek har bir o'tiladigan fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlarida kasbga yo'naltiruvchi maqsadlarga erishishga qaratilgan o'quv materiallari fan o'qituvchilariga tarqatildi.

Bundan tashqari o'quvchilar o'rtasida ilg'or kasb egalari bilan uchrashuvlar, har xil davra suhbatlari, ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiyalar, sayoxatlar o'tkazish orqali o'quvchilarning turli xil kasblarga bo'lgan qiziqishlarini oshirdik. Kundalik turmushimizda har bir kasbning o'z o'rnini borligi, har bir inson o'z qobiliyati va qiziqishiga qarab kasb tanlab uning amaliyotda qo'llashi, hamda o'zi va o'zgalar bajarayotgan kasbdan bahra olishni oqilona tushuntirib to'g'ri maslahatlar berib borildi. Hayotdan namunalar keltirildi.

Shularga asosan tadqiqotimiz oxirida yana 12 ta kasb bo'yicha 30 nafar o'quvchiga murojaat qildik (3-4-ilovalar).

Tadqiqot oxiri (8^a-30 nafar o'quvchi)

№	Kasb nomlari	Kasblarni tanlagan o'quvchilar soni	%	O'z xoxishi bilan	%	Ota-ona tavsiyasi	%
1.	O'qituvchi	4	14	3	10	1	3.3
2.	Bank xodimi	1	3.3	1	3.3		
3.	Duradgor	3	10	3	10	-	

4.	Shifokor	3	10	3	10	-	
5.	Ichki ishlar xodimi	2	6.6	2	6.6	-	
6.	Huquqshunos	3	10	1	3.3	2	6.6
7.	Haydovchi	2	6.6	2	6.6	-	
8.	Sartarosh	2	6.6	2	6.6	-	
9.	Tadbirkor	3	10	3	10	-	
10.	Oshpaz	2	6.6	2	6.6	-	
11.	Tikuvchi	3	10	2	6.6	1	3.3
12.	Chilangar	2	6.6	2	6,6	-	

Jadvaldan ko'rinib turibdiki o'quvchilar bilan sinfdan tashqari ishlar orqali kasbga yo'naltirish bo'yicha olib borgan izlanishimiz ijobiy natija berdi. O'quvchilar kasblarni nomi ulug' bo'lganligi uchun emas, o'zlarining qiziqishi va qobiliyatini hisobga olib, kasblarni tanlaganligini bildirdilar. Kelajakda o'z tanlagan kasblari bo'yicha halol mehnat qilib, el-yurt hurmatiga loyiq bo'lishini maqsad qilib oldilar.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, insoniylikning eng muhim shartlaridan biri, bu ma`naviy va ma`rifiy bilim olish hamda kasb-hunar egallash bo`lib, yoshlarni komil inson qilib tarbiyalash, voyaga yetkazishda muhim omillardan hisoblanadi. Zero, hozirgi vaqtda Prezidentimiz yoshlar ta`lim-tarbiyasiga katta ahamiyat berayotganligining boisi ham shunda ko`rinadi.

Umuman, ma`naviyat-ma`rifat va madaniyatning asosiy belgilaridan biri – savodxonlik ham ilm bo`lib, bular ma`naviy boyligimizning poydevori hisoblanadi. Hozirgi paytda O`zbekiston aholisining 99,06 % savodli.

Kishilarga bilim berish jarayonining kichik qonuniyatlarini aniqlab beruvchi inson faoliyati turiga ma`naviyat ilmi deyiladi.

Ma`naviyat ilmi aniqlangan qonuniyatlar aossida ta`lim-tarbiyani amalga oshirish uslublarini yaratuvchi ilm-fan turiga uslubiyat (metodika) deyiladi. Ma`rifat ilmi aniqlangan qonuniyatlar va shu hamda tarbiya berish usullarini ma`rifiy jarayonda qo`llash ma`rifat (pedagogika) fani tomonidan o`rgatiladi.

Bilim olish va uning afzalliklari haqida Sharqda qadim-qadimdan fikrlar bildirib kelingan. Har bir davrda bu fikrlar yangi-yangi qarash va g`oyalar bilan boyitib kelinmoqda. Chunki, bilish falsafaning ham asosiy muammolaridan biri sanaladi. Zero, bilim olish va o`z navbatida, kasb egallash shaxs ma`naviyatini yukcaltirish, jamiyatdagi o`rnini topishga yordam beradi.

O`quvchilarni ongli kasb tanlashga tayyorlash umumiy ta`lim maktabining muhim vazifasidir. Bu tayyorgarlik ikki omilni:

- 1) jamiyatni kadrlarga bo`lgan extiyojini;
- 2) yoshlarning shaxsiy qobiliyatini hisobga olib amalga oshiriladi.

Ikkinchisi, shaxsning kasbiy jihatdan o`z-o`zini anglashi bilan bog`liqdir.

O`quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash: ular e`tiborini targ`ib qilinayotgan kasblarga jalb etishni, mehnatning ilmiy asoslari bilan chuqur tanishishni yo`lga qo`yishni, ularni faqat zarur malaka va ko`nikmalari egallashgina emas, shu bilan birga shaxsni, qobiliyatlarini rivojlantirishni ta`minlovchi faoliyatga jalb etishni ham o`z ichiga oladi.

Kasbga yo'naltirishning dastlabki bosqichida targ'ibotchilik ishiga o'quvchilarning o'zini faol jalb etish zarur. Bu shubxasiz, ularning ishlab chiqarish va undagi kasblar bilan batafsil tanishishlari uchun zamin yaratadi.

Maktabda kasblarni targ'ib qilish vositalari sifatida kasb tanlashga bag'ishlangan leksiyalar, suhbatlar, konfrensiyalar, uchrashuvlar, bahslar, kechalar, maktab radiosi orqali maxsus eshittirishlar uyushtirish, devoriy gazetalar chiqarish, kasbga yo'naltirish burchaklarini bezatishdan foydalaniladi. Maktab yoshlari uchun tengdoshlari – korxonalarining ishchilari va xunar texnika bilim yurtlari o'quvchilari bilan bevosita aloqalar juda foydali bo'ladi, umumiy manfaatlar, do'stona o'zaro munosabatlar ko'pincha maktab bitiruvchisi keyinchalik qo'shiladigan mehnat jamoasini tanlashini belgilab beradi. Kasb maorifida badiiy adabiyot alohida o'rin tutadi. O'quvchilarning o'qishi va muxokama qilishi uchun adabiy asarlarni tanlash kasbga yo'naltirish ishining muhim bo'limidir. O'quvchilarda kasbga bo'lgan qiziqishlarni shakllantirish bosqichi ularni mehnat faoliyatiga qo'shish bilan ham bog'liqdir.

Maktab o'quvchilari kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatga molik sabablarini shakllantirish uchun darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarda katta imkoniyatlar mavjud. Bu ish maktab direktori, sinfdan va maktabdan tashqari ishlar tashkilotchisi, sinf rahbarlari, fan o'qituvchilari, ota-onalar, ma'rifiy-ma'daniy muassasalar xodimlari, mehnat jamoalari bilan mustaxkam hamkorlikda amalga oshiriladigan birgalikdagi kuch-g'ayratlari bilan yo'naltiriladi va u umumiy tarzda amalga oshirilishi kerak.

Darsdan tashqari ishlar tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning xilma-xil usul va shakllari bilan ajralib turadi. Kasblar to'g'risidagi, mehnat faoliyati turlari haqidagi axborot manbaiga qarab kasbga yo'naltirish shakl va usullarini shartli ravishda uch guruhga:

Og'zaki, ko'rgazmali va amaliy shakl va usullarga bo'lish mumkin.

Tarbiyaviy ishlar davomida tarbiyalanuvchining qarashlari, hayotiy nuqtai-nazari asta-sekin tarkib topib boradi. U tarbiyalanuvchining xulq – atvori hamda tevarak-atrofdagi muhitning xilma-xil ta'sirlariga uning munosabatlarini

belgilaydi. Shaxsning bu tutgan yo'li qancha aniq va izchil bo'lsa, tevarakatdagi hayot sharoitlarining turlicha salbiy ta'siri shuncha kuchsiz bo'ladi.

Tarbiyaviy ish metodikasini o'rganish talabalarni, o'quvchilarni tarbiyalashning umumiy masalalarini mustaqil, ijodiy va dadil hal qilishga tayyorlashi lozim. Agar bu o'rganish talabalarning pedagogik praktikasi bilan chambarchas bog'langan bo'lsa va ularni kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalashga undasa, ancha ijobiy natija beradi.

Maktab islohotini, amalga oshirish ta'limni unumli mehnat bilan qo'shish asosida maktab o'quvchilarining mehnat tarbiyasini va ularni kasbga yo'naltirishni tubdan yaxshilash, yoshlarning umumiy o'rta ta'limini umumiy kasb ta'limi bilan to'ldirish imkonini beradi.

Kasbga yo'naltirish – yoshlarni erkin va mustaqil kasb tanlashga ilmiy-amaliy jihatdan tayyorlash sistemasidir. U har bir shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini ham, davlat manfaatlari yo'lida mehnat resurslarini to'laqonli taqsimlash zarurligini ham hisobga olishi kerak. Kasbga yo'naltirish tajribasi yoshlar ijtimoiy yetukligining ancha yuksak darajasini ta'minlashni, unda umumiy ish yo'lida faol mehnat qilish qobiliyati va intilishini tarbiyalashni talab etadi. O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash jarayonida ularni bilimlar bilan ijtimoiy, unumli mehnatga va ijtimoiy munosabatlarga faol qo'shilib ketishga intilish bilan qurollantirilishi muhimdir. Bu o'z navbatida umumiy ta'lim maktabidan ixtisoslashish va ishlab chiqarish tajribasi jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan kasbga yo'naltirish shakllarini izlab topishni talab etadi.

Kasbga yo'naltirishning maqsadi yosh avlodni ongli kasb tanlashga tayyorlashdir. Buning uchun: o'quvchilarda xulq-atvor va faoliyatning ijtimoiy ahamiyatga molik ichki (ruhiy) regulyatorini shakllantirish; mehnatning har xil turlariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash; kasbiy jihatdan o'z-o'zini anglashda shaxsiy pozitsiyani faollashtirish, ya'ni o'quvchini ongli kasb tanlashga tayyorlash natijasida uning shaxsiga tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi yondoshuvni amalga oshirish zarur.

Kasbga yo'naltirish kompleks, ko'p jihatli muammo bo'lib, u ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik-pedagogik, tabiiy-fiziologik jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu jihatlarning barchasi bir vaqtda, o'zaro bog'liq holda amal qilishi kerak. Kasbga yo'naltirishning ijtimoiy jihati o'quvchilarning bilimlar, normalar, qadriyatlarining muayyan sistemasini o'zlashtirish jarayonini nazarda tutadi, ular o'quvchiga jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida ijtimoiy-kasb faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Shuning uchun o'quvchilarni kasbga ko'naltirishni dastavval jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi, shuningdek mamlakat uchun bo'lajak kadrlar tayyorlashni oldindan aytib berish, o'quvchilarda shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish birligi nuqtai nazaridan hal etish kerak. Iqtisodiy jihat – tobora ko'proq qismini yoshlar tashkil etadigan mavjud va istiqboldagi mehnat resurslaridan unumli foydalanish va ularni oqilona taqsimlashdir.

Psixologik-pedagogik jihat – o'quvchilarning qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlarini aniqlash va shakllantirish, iste'dodni izlashda, shaxsning o'ziga xos xususiyatlariga, uning potensial imkoniyatlariga mos keladigan kasbni tanlashida yordam berish; maktab o'quvchilarining kasbiy jihatdan o'z-o'zini anglashini samarali boshqarish yo'llari va shartlarini belgilashdir. Tabiiy-fiziologik jihat kishining sog'lig'i va u yoki bu kasb faoliyatini bajarish uchun zarur bo'lgan alohida fiziologik vazifalari, psixofiziologik sifatlariga nisbatan maxsus talablar qo'yadi.

Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishni boshqarish sistemasida rejalashtirish birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. U ma'lum yoshdagi o'quvchilar tarkibiga nisbatan kasbga yo'naltirish ta'sirining izchilligi ta'minlaydi. Rejalashtirish kasbga yo'naltirishdan iborat yaxli jarayonni o'zaro bog'langan bosqichlariga bo'lish, o'quvchilar faoliyatining har bir yosh uchun maqsadga muvofiq bo'lgan turlarini nazarda tutish imkonini berdi.

Amalga oshirilgan tadqiqotimiz natijasida quyidagi tavsiyalarni bayon qilamiz: O'quvchilarning to'garaklardagi faoliyati ma'lum pedagogik talablarga rioya qilganda samarali bo'ladi. Chunonchi:

- to'g'arak faoliyati ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi lozim, ya'ni, o'quvchilar tayyorlagan buyumlar kishilar uchun amaliy qiymatga ega bo'lishi zarur;
- texnik ijodkorlik o'quv muassasasidagi o'quv-mehnat jarayoni bilan uzviy aloqada bo'lishi kerak (maktab, kollej, oliy ta'lim va boshqalar);'
- ijtimoiy-foydali, unumli mehnat jarayonida o'quvchining texnik ijodkorligini tashkil etishda faoliyatni ijtimoiy buyurtmadan ijodkorhikka aylantirish kerak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – Toshkent: O'zbekiston. 1992. -46 b.
2. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq. 1997. - 64 b.
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. - T.: O'zbekiston. 1998. - 480 b.
4. Barkamol avlod orzusi ("Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirish borasidagi publisistik mulohazalar). - T.: Sharq. 1998. - 184 b.
5. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: O'zbekiston. 1999. - 686 b.
6. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot -pirovard maqsadimiz. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruza. 2000 yil 22 yanvar. - T.: O'zbekiston 2000. - 77 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 yanvardagi 5-sonli «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida» gi qarori // Ta'lim taraqqiyoti №1. - T.: Sharq NMK.1998. 31-32 b.
8. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida Nizom // Xalq ta'limi 1998 №4 - 12-20 b.
9. Davlat ta'lim standartlari. -T.: Sharq, 1998. -503 b.
10. Abdulla Avloniy Turkiy Guliston yoxud axloq. -T.: O'qituvchi. 1992. -160 b.
11. Alisher Navoiy. Arabin hadis ("qirq qadis"). -T.: Yozuvchi, 1991. -57 b.
12. Arziqulov D.N. Kasbiy kamolotning psixologik o'ziga xos xususiyatlari.: Psix. fan. nom. ... diss. avtoref.–T.: 2002. -22 b.
13. Axrorov Yu.A. Formirovaniye kultury mejnasionalnogo obshyeniya. /Uchebnoye posobiye po speskursu dlya studentov universitetov i pedvuzov. - Samarkand: Izd. SamGU.1992. - 88 s.
14. Al Jome' as-Sahix. Xoja Ismoil Al-Buxoriy T.: 2 t.
15. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. -T.: O'qituvchi. 1995. -56 b.

16. Batishev S.Ya. i dr. Upravleniye professionalnoy podgotovkoj i povo'sheniyem kvalifikasii rabochix. -M.: «Professionalnoye obrazovaniye» 1995. -208 s.
17. Bepalko V.P. Pedagogika i progressivno'ye texnologii obucheniya. – M.: IRPO, 1996. – 336 s.
18. Vayner Ye.A. TSO v samostoyatelnoy rabote uchahixsya: Umeniya i navo'ki samostoyatelnogo osvoyeniya znaniy, ix primeneniye na praktike // J. Fizika v shkole. – 2001. -№7. -s. 53-56.
19. Vulfov B.Z. Uchitel: professionalnaya duxovnost //J. Pedagogika. 1995. № 2. - s. 48-52.
20. Vygotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya /Pod red. V.V.Davo'dova. – M.: Pedagogika, 1991. – 480 s.
21. Gershunskiy B.S. Filosofiya obrazovaniya dlya XXI veka. – M.: Prosvehyeniye, 1998. – 608 s.
22. Davlatov K.D. va b. Mehnat va kasb ta'limi hamda metodikasi. -T.: O'qituvchi. 1992 . -31 b.
23. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. – T.: O'zbekiston, 1999. – 29 b.
24. Djurayeva B.R. Formirovaniye pedagogicheskoy kulturo' buduhix uchiteley v prosesse izucheniya dissiplin pedagogicheskogo sikla. Monografiya. – T.: Fan, 2003. - 177 s.
25. Djurayev R.X. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlarni kasb-hunar tayyorgarligini takomillashtirishning nazariyasi va amaliyoti. Avtoref. dokt.diss. -M.: 1996 T.: Fan 1992. 260 b.
26. Jumayev M. O'quv jarayonida bo'lajak boshlang'ich o'qituvchilarning pedagogik madaniyatini tarbiyalash. Ped.fan.nom.diss. -T.: 1999. 160 b.
27. Jo'raev A.J. “Tarbiyaviy darslarni o'tish”. T.: «O'qituvchi” 1994.
28. Yereskiy M.I. Polisor E.L. Razrabotka i primeneniye testov uspeshnosti usvoyeniya. -M.: Profobrazovaniye. 1996. -83 s.

29. Ibragimov X. Teoreticheskiye osnovy professionalnogo samovospitaniya budущix uchiteley v pedagogicheskix uchiliщax i kolledjax.: Avtoref. diss.... dokt. ped. nauk. - M.:MPGU.1996. - 39 s.
30. Isayeva G. Bo'lg'usi pedagoglarning kasbiy fazilatlari.//J Xalq ta'limi. 2004 №2. – 41-46 b.
31. Isayeva G. Pedagogika kollejlarda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning uslubiy tizimi// Kasb-hunar ta'limi. 2004 №2. -10-11-b.
32. Yo'ldoshev J.G'. O'zbekiston respublikasi ta'limi taraqqiyot yo'lida. -T.: O'qituvchi. 1994. -92 b.
33. Yo'ldoshev J.G'. Ta'limimiz istiqboli yo'lida. -T.: Sharq. 1996. -224 b.
34. Yo'ldoshev J. "O'qituvchi ma'naviyatini shakllantirish" T.: "Sharq" 2000.
35. Kaykovus. Qobusnoma. –T.: O'qituvchi 1986. -154 b.
36. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. – T.: Universitet. 1999. – 96 b.
37. Keldiyorov R.A. Adabiyot darslari samaradorligini oshirishning ilmiy-metodik asoslari: p.f.n. diss. ... -T.:TDPU. 2001. -159b.
38. Kurbanov Sh., Seytxalilov E. Nasionalnaya programma po podgotovke kadrov. – T.: Universitet, 2000. – 103 s.
39. Mamajonov A. O'rta hunar o'quv yurtlarida bo'lajak ishchi mutaxassislarni tayyorlash jarayonida kasbiy madaniyatni shakllantirish. Ped. nomz. diss. - T.: 1997. -160 b.
40. Misliboyev I. Kasb-hunar o'quv yurtlarida o'quvchilarning ekologik ma'rifatini shakllantirishning pedagogik sharoitlari. Ped. fan. nom. diss. avtoref - T.: UMKXTRI. 1999 y. -19 b.
41. Munavvarov A.K. "Oila pedagogikasi" T.: «O'qituvchi» 1994.
42. Nosirho'jayev S.N va boshqalar. Ma'naviyat asoslari. Toshkent 2005.
43. Nishonaliyev U. Formirovaniye lichnosti uchitelya trudovogo obucheniya: problemy i perspektivy. T.: Fan. 1990-86 s.
44. Nikitin N.V. Novyye podxody k organizatsii vospitatelnoy raboty v professionalnom uchebnom zavedenii. - M.: SRPO.1991. - 128 s.

45. Nikitin N.V. Vospitaniye professionalizma. Osvoeniye novyx sennostnykh orientatsiy v kollektive professionalnogo uchrejdeniya. – M.: SRPO. 1995. -62 s.
46. Ochilov M. Yangi peagogik texnologiyalar. -Qarshi. Nasaf. 2000. 80 b.
47. Ochilov M.O. Muallim qalb me'mori. -T.: O'qituvchi.2001. - 429 b.
48. Raximov B.X. Bo'lajak o'qituvchida kasbiy-madaniy munosabatlarning shakllanishi. Ped.fan.nom. diss. ... -T.: 2005. 161 b.
49. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. –T.: O'z MU. 2003. - 66 b.
50. Sayidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. –T.: RTM. 2000. -46 b.
51. Sariboyev N.S. Izmeritelno'ye umeniya uchitelya truda kak faktor yego professionalnoy podgotovki. Avtoref. diss. kand. ped. nauk. –T.: 1990. - 16 s.
52. Slastenin V.A., Mihyenko A.I. Professionalno-pedagogicheskaya podgotovka sovremennogo uchitelya. //J. Sov. pedagogika. 1991. № 10. - S. 79-84.
53. Turdiqulov E.A. Ekologik ta'lim va davlat standarti //Xalq ta'limi j., 2000. - 79-82-b.
54. To'raqulov E.T. Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta'lim tarbiya haqida. -T.: O'qituvchi. 1992. -80 b.
55. Xodjaboyev A.R. Nauchno-pedagogicheskiye osnovo' uchebno-metodicheskogo kompleksa podgotovki uchitelya truda. Avtoref. Diss. ped. nauk. - T.: 1992. - 42 s.
56. Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasbhunarga yo'llash texnologiyasi. ped.fan nomzodi. Diss. -T.: 2004. -141 b.
57. Shodiyev N.Sh. Ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishda maktablar bilan ishlash. - T.: UzPITI.1996. -16 b.
58. Yusuf Xos Hojib Qutadg'u bilig. -T.: Yulduzcha. 1990. -189 b.
59. O'tanazarov S. 1945-85 yillarda O'zbekiston o'rta maxsus o'quv yurtlarida o'qituvchilar tayyorlanishning tarixi. diss. kand. ped. nauk. –T.: 1990 . - 160 b.
60. O'quv qo'llanma "Tarbiyaviy ish metodikasi" T.: «O'qituvchi» 1991.

61. Qodirov B. Sinf zukkolarini tanlash metodikasi (Yosh iste'dodlarni izlaymiz)- T.: RTM. 1998. -26 b.
62. Quranov M. O'zbek oilasida mehnat va ahloqiy tarbiya tarixiga bir nazar. - T.: Taraqqiyot 1995. -45 b.
63. G'oziyev E.G. To'laganova. Pedagogik psixologiya asoslari - T.: Universitet. 1997. -80 b.
64. G'oziyev E., Azizova Sh.V. Tashkiliy psixologiya. 1-k.T.: Universitet. 1999-92 b.
65. Hasanov S. Mutafakkurlar mehnat tarbiyasi haqida. -T.: O'qituvchi. 1993. - 144 b.
66. Haydarov Ya, Nauchno-pedagogicheskiye osnovo' yedinstva obhyego i professionalnogo obrazovaniya v srednix spesialno'x uchebno'x zavedeniyax. Avtoref.diss.doktora ped.nauk. -T.: 1990. -34 s.
67. www.ziyonet.uz
68. www.google.uz
69. www.referat.uz

ILOVALAR

1-ilova

Umumta'lim maktablarida ma'naviy ma'rifiy tadbirlar rejasi asosida tajriba-sinov guruhlarida amalga oshiriladigan kasbga yo'llash va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning
MUQOBIL DASTURI

KASB TANLASH ISHLARI				
№	Tadbirlar nomi	Muddati	Mas'ul	Kutiladigan natija
1.	Kasb tanlash ishlari bo'yicha o'quvchilar o'rtasida targ'ibot ishlari olib borish, suhbatlar o'tkazib borish	Muntazam	MMIBDO' Z.Niyozov, sinf rahbarlari, psixolog L.Samandarova	
2.	Kasblar xususiyatlari asosida umumta'lim fanlarning ahamiyati to'g'risida davra suhbatlari tashkil etish	Sentyabr		O'quvchilarning o'zlari tanlagan kasblarni egallashlari uchun muayyan predmetlarga zaruriy bilimlarni egallashga qiziqishlar yuzaga keladi
3.	Kasblar va ularning jamiyatda tutgan o'rni to'g'risida ijodiy ish tanlovini o'tkazish	Oktyabr- noyabr		O'quvchilar tomonidan o'zlari tanlagan kasbning ijtimoiy mohiyatini anglash orqali kasb tanlashga ongli munosabatlar shakllanadi.
4.	Samarqand shahridagi hunarmandchilik markazlariga sayohat uyushtirish	Dekabr		Hunarmandchilik markazlari faoliyati bilan tanishish orqali o'quvchilarda mehnatga ijobiy munosabat shakllanadi.
5.	Turli kasb egalari bilan uchrashuvlar uyushtirish	Yanvar-may	Mehnat fani o'qituvchilari	
6.	Maktab hududida sinflar o'rtasida «Eng obod sinf uchastkasi» tanlovini o'tkazish	Fevral-mart		Tanlov natijasida yuzaga keladigan motivlar orqali o'quvchilarni ixtiyoriy

				mehnatga jalb qilishga erishiladi.
7.	O'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlarini bilish maqsadida qiziqishlar xaritasini to'ldirish	Yanvar-mart	Maktab psixologi L.Samandarova	
8.	Psixologik testlar orqali o'quvchilarning kasbiy layoqatliligini aniqlash	Fevral		Kasbga layoqatlilikni belgilaydigan komponentlarni aniqlash orqali maqsadli kasbga yo'llash amalga oshiriladi.
9.	9-sinf bitiruvchilaridan anketalar, so'rovnomalar olish	Fevral-may	Maktab psixologi L.Samandarova	
10.	Samarqand shahridagi ishlab-chiqarish korxonalariga ekskursiyalar uyushtirish	Mart		Ekskursiyalar orqali o'quvchilarda mehnatga munosabat yuzaga keladi va
11.	1-sinfдан boshlab o'quvchilarda kasbga bo'lgan qiziqishni oshirish maqsadida «Ota-onam kasbi», «Kasblar haqida tushuncha», «Kim bo'lmoqchisan?» kabi mavzularda suhbatlar uyushtirish	Yanvar-may	Sinf rahbarlari	
12.	Shahardagi kasb-hunar kollejlari va akademik liseylar bilan shartnomalar tuzish	Sentyabr	Maktab psixologi L.Samandarova	
13.	9-sinf bitiruvchilari bilan birgalikda shahardagi kasb-hunar kollejlariga va akademik liseylarga sayohat uyushtirish	Reja asosida	Maktab psixologi L.Samandarova	

1. “O’qituvchi” kasbi bo’yicha tadqiqot boshida 5 nafar o’quvchi o’z fikrini bildirdi. Shundan 3 nafari o’z hoxishi bilan, 2 nafari ota-onasi tafsiyasi bilan o’qituvchilik kasbini egallashini aytishdi.

№	Ismi familiyasi	O’qituvchilik kasbi
1	Abbosova Sharofat	O’z hoxishi bilan
2	Abdurahmonova Guulmira	
3	Anarboyeva Dilnoza	
4	Asatillayeva Nodira	Ota – onasini tavsiyasi bilan
5	Axrorova Xonzodabegim	

2. “Bank xodimi” kasbi bo’yicha tadqiqot boshida 1 nafar o’quvchi ota-onasini tavsiyasi bilan shug’ullanishni bildirdi.

№	Ismi familiyasi	Bank xodimi kasbi
1	Baxramov Boburjon	Ota-onasini tavsiyasi bilan

3. “Duradgor” kasbi bo’yicha 1 nafar o’quvchi ota-onasining tavsiyasi bilan shu kasbni egallamoqchiligini bildirdi.

№	Ismi familiyasi	Duradgor kasbi
1	Bayramov Shuhrat	Ota-onasini tavsiyasi bilan

4. “Shifokor” kasbi bo’yicha 3 nafar o’quvchidan o’z hoxishi bilan 2 nafari, ota-onasining tavsiyasi bilan 1 nafar o’quvchi shifokor kasbini egallamoqchiligini bildirdi.

№	Ismi familiyasi	Shifokor kasbi
1	Djanonov Islom	O’z hoxishi bilan
2	Ergasheva Maftuna	
3	Fayzullayeva Dildora	Ota-onasini tavsiyasi bilan

5. “Ichki ishlar xodimi” 1 nafar o’quvchi o’z hoxishi bilan qiziqishini bildirdi.

№	Ismi familiyasi	Ichki ishlar xodimi kasbi
1	Hamdamov Muhammadjon	O’z xoxishi bilan

6. “Huquqshunoslik” kasbi bo’yicha 4 nafar o’quvchi belgilanib, ular quyidagilar.

№	Ismi familiyasi	Huquqshunos kasbi
1	Hamraqulova Sitora	O’z xoxishi bilan
2	Hasanov Muhammad	
3	Istamov G`ulomjon	Ota-onasini tavsiyasi bilan
4	Djalilova Sabina	

7. “Haydovchi” kasbi bo’yicha 2 nafar o’quvchi belgilandi.

№	Ismi familiyasi	Haydovchi kasbi
1	Kubayev Amirbek	O’z hoxishi bilan
2	Mamatov Shohjahon	

8. “Sartarosh” kasbi bo’yicha 1 nafar o’quvchi ota-onasini tavsiyasi bilan belgilandi.

№	Ismi familiyasi	Sartarosh kasbi
1	Qarshiyev Azizbek	Ota-onasini tavsiyasi bilan

9. “Tadbirkorlikka” esa 6 nafar o’quvchi belgilanib bular quyidagilar.

№	Ismi familiyasi	Tadbirkorlik kasbi
1	Jobirov Jo’rabek	O’z hoxishi bilan
2	Jo`rayeva Shahlo	
3	Kamolova Diyora	
4	Norqulova Gullola	Ota-onasini tavsiyasi bilan
5	Normammedov Sanjar	
6	Amonova Istotaxon	

10. “Oshpazlik yoki pazandachilik” kasbi bo’yicha 2 nafar o’quvchi belgilandi

№	Ismi familiyasi	Oshpazlik yoki pazandachilik kasbi
1	Vahobov Farrux	O’z hoxishi bilan
2	Husainboyeva Xojarbibi	Ota-onasini tavsiyasi bilan

11. “Tikuvchilik” kasbi bo’yicha 3 nafar o’quvchi belgilandi.

№	Ismi familiyasi	Tikuvchilik kasbi
1	Sattorova Sarvinoz	O’z hoxishi bilan
2	Jo`raqulova Sarvaroy	
3	To`xtayeva Kamola	Ota-onasini tavsiyasi bilan

12. “Chilangar” kasbi bo’yicha 1 nafar o’quvchi

№	Ismi familiyasi	Chilangar kasbi
1	Shukurov Donyorjon	Ota-onasini tavsiyasi bilan

1. “O’qituvchi” kasbi bo’yicha tadqiqot oxirida 4 nafar o’quvchi o’z fikrini bildirdi. Shundan 3 nafari o’z hoxishi bilan, 1 nafari ota-onasi tavsiyasi bilan o’qituvchilik kasbini egallashini aytishdi.

№	Ismi familiyasi	O’qituvchilik kasbi
1	Abbosova Sharofat	O’z hoxishi bilan
2	Abdurahmonova Gulmira	
3	Anarboyeva Dilnoza	
4	Asatillayeva Nodira	Ota – onasini tavsiyasi bilan

2. “Bank xodimi” kasbi bo’yicha tadqiqot oxirida 1 nafar o’quvchi o’z hoxishi bilan shug’ullanishni bildirdi.

№	Ismi familiyasi	Bank xodimi kasbi
1	Baxramov Boburjon	O’z hoxishi bilan

3. “Duradgor” kasbi bo’yicha 3 nafar o’quvchi o’z hoxishi bilan shu kasbni egallamoqchiligini bildirdi.

№	Ismi familiyasi	Duradgor kasbi
1	Bayramov Shuhrat	O’z hoxishi bilan
2	Farxodov Bekzod	
3	Djanonov Islom	

4. “Shifokor” kasbi bo’yicha 3 nafar o’quvchi o’z hoxishi bilan egallamoqchiligini bildirdi.

№	Ismi familiyasi	Shifokor kasbi
1	Ergasheva Maftuna	O’z hoxishi bilan
2	Fayzullayeva Dildora	
3	Djalilova Sabina	

5. “Ichki ishlar xodimi” 2 nafar o’quvchi o’z hoxishi bilan qiziqishini bildirdi.

№	Ismi familiyasi	Bank xodimi kasbi
1	Hamdamov Muhammadjon	O’z hoxishi bilan
2	Istamov G`ulomjon	

6. “Huquqshunoslik” kasbi bo’yicha 3 nafar o’quvchi belgilanib, ular quyidagilar.

№	Ismi familiyasi	Huquqshunos kasbi
1	Hamraqulova Sitora	O’z hoxishi bilan
2	Hasanov Muhammad	Ota – onasini tavsiyasi bilan
3	Amonova Istotaxon	

7. “Haydovchi” kasbi bo’yicha 2 nafar o’quvchi belgilandi.

№	Ismi familiyasi	Haydovchi kasbi
1	Kubayev Amirbek	O’z hoxishi bilan
2	Mamatov Shohjahon	

8. “Sartarosh” kasbi bo’yicha 2 nafar o’quvchi o’z hoxishi bilan belgilandi.

№	Ismi familiyasi	Sartarosh kasbi
1	Qarshiyev Azizbek	O’z hoxishi bilan
2	Normammedov Sanjar	

9. “Tadbirkorlikka” esa 3 nafar o’quvchi belgilanib bular quyidagilar.

№	Ismi familiyasi	Tadbirkorlik kasbi
1	Norqulova Gullola	O’z hoxishi bilan
2	Jo`rayeva Shahlo	
3	Kamolova Diyora	

10. “Oshpazlik yoki pazandachilik” kasbi bo’yicha 2 nafar o’quvchi belgilandi

№	Ismi familiyasi	Oshpazlik yoki pazandachilik kasbi
1	Vahobov Farrux	O’z hoxishi bilan
2	Husainboyeva Xojarbibi	

11. “Tikuvchilik” kasbi bo’yicha 3 nafar o’quvchi belgilandi.

№	Ismi familiyasi	Tikuvchilik kasbi
1	Sattorova Sarvinoz	O’z hoxishi bilan
2	Jo`raqulova Sarvaroy	
3	To`xtayeva Kamola	Ota-onasini tavsiyasi bilan

12. “Chilangar” kasbi bo’yicha 2 nafar o’quvchi

№	Ismi familiyasi	Chilangar kasbi
1	Shukurov Donyorjon	O’z hoxishi bilan
2	Jobirov Jo`rabek	

Tadqiqotchi:

N.Irxonova

Tadqiqot natijalari (tajriba so'ngida)

№	Kasblar nomi	O'quvchilar ismi familiyasi			O'z xoxshi		Ota-onasi tavsiyasi bilan	
			Soni	%	Soni	%	Soni	%
1	O'qituvchi	1.Abbosova Sharofat 2.Abdurahmonova Gulmira 3.Anarboyeva Dilnoza 4.Asatillaye va Nodira	4	14	3	10	1	3.3
2	Bank xodimi	1.Baxramov Boburjon	1	3.3	1	3.3		
3	Duradgor	1.Bayramov Shuhrat 2.Farxodov Bekzod 3.Djanonov Islom	3	10	3	10		
4	Shifokor	1.Ergasheva Maftuna 2.Fayzullaye va Dildora 3.Djalilova Sabina	3	10	3	10		
5	Ichki ishlar xodimi	1.Hamdamiy Muhammadjon 2.Istamiy G'ulomjon	2	6.6	2	6.6		
6	Huquqshunos	1.Hamraqulova Sitora 2.Hasanov Muhammad 3.Amonova Istotaxon	3	10	1	3.3	2	6.6
7	Haydovchi	1.Kubayev Amirbek 2.Mamatov Shohjahon	2	6.6	2	6.6		
8	Sartarosh	1.Qarshiyev Azizbek 2.Normuhammedov Sanjar	2	6.6	2	6.6		
9	Tadbirkor	1.Norqulova Gullola 2.Jo'rayeva Shahlo 3.Kamolova Diyora	3	10	3	10		
10	Oshpaz	1.Vahobov Farrux 2.Husainboyeva Xojarbibi	2	6.6	2	6.6		
11	Tikuvchi	1.Sattorova Sarvinoz 2.Jo'raqulova Sarvaroy 3.To'xtayeva Kamola	3	10	2	6.6	1	3.3
12	Chilangar	1.Shukurov Donyorjon 2.Jobirov Jo'rabek	2	6.6	2	6.6		